

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 93 (1154), 2024-yil 15-may, chorshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



OSIYO XOTIN-QIZLARI FORUMINING SAMARALI YAKUNLARI YUQORI BAHOLANDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 14-may kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibining o‘rinbosari, “BMT – ayollar” tuzilmasi ijrochi direktori Sima Sami Baxus boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



BMT delegatsiyasi shu kunlarda Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan Osiyo xotin-qizlari forumi doirasida mamlakatimizda bo‘lib turibdi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining gender tenglik masalalari bo‘yicha yetakchi instituti rahbari Prezidentimizga Bosh kotib Antoniu Guterrishning samimiy salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O‘zbekistonda xotin-qizlarning mavqeini tubdan yaxshilash va jamiyatdagi maqomini oshirishga qaratilgan samarali islohotlarga yuksak baho berildi.

Uchrashuvda mamlakatimizning “BMT — ayollar” tuzilmasi bilan konstruktiv hamkorligini yanada rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish va manfaatlarini ilgari surish sohasidagi barcha asosiy xalqaro konvensiyalarga qo‘shilgan, BMTning tegishli komissiyasi ishida faol ishtirok etmoqda.

Osiyo xotin-qizlari forumining samarali yakunlari yuqori baholandi. Ushbu forumni Osiyo mintaqasida ayollar huquqlarini kengaytirish masalalari bo‘yicha doimiy muloqot platformasiga aylantirish muhimligi ta’kidlandi.

O‘zaro hamkorlik bo‘yicha, shu jumladan, mintaqaviy darajadagi aniq loyiha va dasturlarni o‘z ichiga olgan o‘rta muddatli istiqbolga mo‘ljallangan dasturni qabul qilish zarurligi qayd etildi.

“BMT — ayollar” tuzilmasining mamlakatimizda vakolatxonasini ochish masalasi qo‘llab-quvvatlandi.

O‘ZA

Sima Sami Baxus:

“SAMARQAND FORUMI O‘ZBEKISTONDA AYOLLAR DAVLATNING USTUVOR MAQSADLARI MARKAZIDA EKANINI TASDIQLADI”

BMT Bosh kotibi o‘rinbosari, “BMT — ayollar” tuzilmasi ijrochi direktori Sima Sami Baxus Samarqandda bo‘lib o‘tgan Osiyo xotin-qizlari forumida ishtiroki davomida “Dunyo” AA uchun eksklyuziv intervyu berdi va anjumaning ahamiyati hamda mamlakatimizda ayollar huquqlarini ta’minlash bo‘yicha islohotlar samarasini qayd etdi.

— Globalshuv jarayonlari jadal sur‘atlar bilan davom etayotgan murakkab sharoitda inson huquqlarining ajralmas qismi sifatida xotin-qizlar huquqlarini ta’minlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu ma’noda, O‘zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan o‘tkazilgan Osiyo xotin-qizlari forumi, sizningcha, bu borada qanday yechimlar beradi?

— Ayollarning ijtimoiy imkoniyatlarini kengaytirish inson huquqlarining ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. Biroq muhim yutuqlar e’tirof etilganiga qaramay, dunyoda xotin-qizlarning iqtisodiyotda teng ishtirok etish huquqi to‘liq ta’minlanganicha yo‘q. Masalan, butun jahon bo‘ylab 2,7 milliarddan ortiq ayollar qonuniy ravishda erkaklar bilan bir xil ish tanlash huquqiga ega emas.

Ishchi kuchi ishtirokidagi gender tafovuti 1990-yildan buyon 30 foiz darajada saqlanib qolmoqda. Shuningdek, ish bilan band bo‘lgan xotin-qizlar

erkaklarga qaraganda o‘rtacha 20 foiz kam maosh oladi. Bu nafaqat adolatsizlik, balki samarasizlik hamdir. Mamlakatlar o‘z aholisining teng yarmini e’tiborsiz qoldira olmaydi.

O‘zbekiston 2027-yilgacha kambag‘allikni ikki barobar qisqartirish bo‘yicha ulkan maqsadni o‘z oldiga qo‘ygan. Bunda xotin-qizlarning o‘ziga xos ehtiyoji va muammolari hisobga olingani juda muhim. Osiyo xotin-qizlari forumi ayollar mamlakatning ustuvor maqsadlari markazida ekanini tasdiqlash uchun o‘z vaqtida zarur imkoniyatdir.

Forum xotin-qizlarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, ayollarni kambag‘allikdan olib chiqadigan hamda ularning jamiyat va iqtisodiyotga qo‘shgan hissasini e’tirof etadigan yangi tashabbuslar haqida fikr yuritish uchun turli ishtirokchilarni birlashtirdi.

▶ Davomi 2-betda

ISHGA KIRISH UCHUN HALIYAM TANISH IZLAYAPSIZMI?

Meritokratiya – korrupsiya kushandasi

Keyingi yillarda meritokratiya tamoyili nazariyadan amaliyotga aylandi. Eng munosiblarning mas’ul lavozimga kelishini ifodalaydigan bu tamoyil tufayli qobiliyatli, tirishqoq va layoqatli nomzodlarga rahbarlik eshiklari ochildi.

“Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinishi bilan kadrlarni tanlashda eski usullardan voz kechildi. Raqamli texnologiyalar yordamida nomzodlarning intellektual salohiyati, ma’naviy fazilatini baholaydigan ochiq va oshkora tanlov tizimiga

yo‘l ochildi, yagona portal ishga tushirildi. U ochiq, mustaqil tanlov tizimi bo‘lib, jarayonda inson omilini minimal darajaga tushirishga xizmat qilmoqda. Bu korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali vositalaridan biridir.

▶ Davomi 3-betda



15-May -
Xalqaro
O.I.L.A kuni

Hech kim tortib
ololmaydigan kueh

Ko‘p yillar avval hamyurtimiz, taniqli jurnalist xorijdagi mashhur gazetalarida birida tajriba amaliyotini o‘tgan davrda bo‘lgan voqea haqida yozgandi. O‘sha gazetaning uchi-to‘rt xodimi va yurtdoshimiz tushlik paytida oila, ota-onalari haqida gaplashib qoladi.

Ulardan biri otasi yoshligida tashlab ketganini, boshqasi esa umuman tanimasligini, yana biri “padari buzrukvori” boshqa ayol bilan yashayotganini afsus bilan, lekin xotirjam aytib beradi. Hamyurtimiz esa ularning “Sening oilangda ahvol qanday?”, degan savoliga hayron bo‘lib, ota-onasi, barcha farzandlari bilan bir hovlida yashayotgani va umuman, otalar nima uchun ayoli va bolalarini tashlab ketishini tushunmasligini aytadi.

Shundan so‘ng hammalari bu borada o‘z qarashlari, tushunchalarini aytib o‘tadi. Nihoyat ular jim qoladi va sen baxtli ekansan, sizlarda oilaga bunday qarashlar bor ekan, unchamuncha kuch bas kela olmaydi, degan ekan hamyurtimizning fikrlariga, oilasiga havas qilib.

Darhaqiqat, ming yillar davomida shakllangan oila bilan bog‘liq an’ana va qadriyatlarimiz insoniy fazilatlar, madaniyat va avlodlarning

tarixiy davomiyliigi, barqarorlik hamda rivojlanish omili o‘laroq muhim ahamiyatga ega. Shu bois, mamlakatimizda oilaga muqaddas qo‘rg‘on sifatida qarash shakllangan. Ayniqsa, keyingi yillarda oila institutini rivojlantirish, oilalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Bu borada, avvalo, yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 76-moddasida “Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidir. Nikoh O‘zbekiston xalqining an’anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi. Davlat oilaning to‘laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi” deb mustahkamlab qo‘yilganini alohida e’tirof etish joiz.

▶ Davomi 5-betda

“Oltin qalam”: O‘ZBEK JURNALISTIKASIDA YANGI AVLOD TANTANASI

Ochig‘ini aytganda, ayni paytda jurnalistikamizda ro‘y berayotgan o‘zgarish, yangilanish va rivojlanishlarni bundan olti-yetti yil oldin tasavvur etib bo‘lmas edi. Jamiyatimiz hayotini yoritishda barchamiz “bir qolip” tizimi va nazoratida edik. Yangi O‘zbekiston ruhi, ochiqlik, haqiqat va adolat bo‘y ko‘rsata boshlagach, sohaga xalqaro jurnalistika talablarini olib kirish imkoni yaratildi va bu oson bo‘lmadi, albatta. Shukrki, bugun hamkasblarimizning qadamini sanaydigan, qalamini qayiradigan zamonlar ortda qoldi. O‘zbek jurnalistikasida xalqning ichiga dadil kirib boradigan, samimiy fikr yuritadigan erkin va yangi avlod paydo bo‘ldi.



Har doimgidek uzoq kutilgan va hamkasblarimizning hayajonli muhokamalariga sababchi bo‘lgan “Oltin qalam” XVIII Milliy mukofoti uchun xalqaro tanlov g‘olib va sovrindorlarini tantanali taqdirlash ma-

rosimiga kirib borar ekanmiz, ustoz va shogirdlarning yo‘l-yo‘lakay suhbatlaridagi ayni mulohazalarning guvohi bo‘ldik. An’anaviy tarzda o‘tkazilayotgan ushbu tanlov g‘olib va sovrindorlarini taqdirlash

marosimi muhtasham “O‘zbekiston” xalqaro anjumanlar saroyida yuksak saviyada o‘tkazildi.

▶ Davomi 2-betda

TAHLIL

TURIZMNI “YASHILLASHTIRISH”

Bu nima uchun kerak va qanday bajariladi? ▶ 4



Xalqaro forum

TASHABBUSLARNI BIRLASHTIRUVCHI MUHIM PLATFORMAGA AYLANGAN ANJUMAN

Samarqandda joriy yil 13-14-may kunlari bo'lib o'tgan Osiyo xotin-qizlari forumi mintaqada xotin-qizlarning salohiyatini ro'yogba chiqarish, iqtisodiyotdagi ishtirokini yanada kengaytirish, davlat va jamiyat boshqaruvida rolini oshirish borasida tajriba almashish uchun o'ziga xos muloqot maydoniga aylandi. Ushbu forumning O'zbekistonda o'tkazilishi mamlakatimizda gender tenglikni ta'minlash hamda xotin-qizlar huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi islohotlar amaliy natijalari xalqaro darajada munosib e'tirof etilayotganining yorqin ifodasi bo'ldi.



Taraqqiyotning yuksak darajasiga erishishda ayollar rolini yanada oshirishga bag'ishlangan nufuzli anjuman aynan Osiyo qit'asi ayollarini bir davraga jamlagan bejiz emas. Zero, xotin-qizlar haq-huquqlarini himoya qilish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va gender tenglikni ta'minlash borasida ushbu mintaq mamlakatlari o'ziga xos boy tajribaga ega. Shu bilan birga, ayollarning jamiyatdagi dolzarb masalalar bo'yicha o'zaro tajriba almashishiga yo'naltirilgan amaliyot ham shakllangan.

Misol uchun, Markaziy Osiyo mamlakatlari yetakchi ayollari muloqoti bugungi kunda gender tenglikni ta'minlash, ayollarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga oid dolzarb muammolarni hal qilishda samarali platforma bo'lib xizmat qilyapti. Osiyo xotin-qizlar forumi ham ushbu yo'nalishdagi tajribalar asosida qit'amiy ayollarining sa'y-harakati va tashabbuslarini birlashtiruvchi platformaga

aylanishi global muammolar yechimi yo'lida muhim qadam bo'lishi shubhasiz.

Bugungi kunda butun dunyoda xotin-qizlarning siyosiy va iqtisodiy masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilishda faol va to'laqonli ishtirokini ta'minlash, mehnat munosabatlarida zo'raonlik va turli shakldagi kamsitishlardan munosib himoya qilish bo'yicha faol sa'y-harakatlar kechmoqda. Tadbirda ushbu yo'nalishdagi ilg'or tajribalarni ommalashtirish, gender tenglikka erishish bo'yicha majburiyatlarini bajarish uchun ikki va ko'p tomonlama hamkorlik aloqalarini mustahkamlash, xotin-qizlarning sifatli ta'lim, ilm-fan, raqamli texnologiyalardan keng foydalanishini ta'minlash hamda innovatsion faoliyatdagi ishtirokini mustahkamlashda mintaqaviy hamkorlikni kengaytirish yuzasidan ma'ruzalar tinglandi.

Xalqaro forum nihoyatda qizg'in va do'stona ruhda o'tdi. Prezidentimizning tadbir

ishtirokchilariga yo'llagan tabrigi va unda ilgari surilgan dolzarb masalalar barchada katta taassurot qoldirishi barobarida qizg'in muhokamalar mavzusiga ham aylandi.

— Davlatimiz rahbarining tabrigini katta qiziqish bilan tingladik, — dedi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Mavjuda Hasanova. — Unda qayd etilganidek, keyingi yillarda yurtimizda xotin-qizlarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, rahbarlik qobiliyati va tadbirkorlik salohiyatini to'liq ro'yogba chiqarish, ularga zamonaviy bilim berish, kasb-hunarga o'rgatish va bandligini ta'minlash, ehtiyojmand va ko'makka muhtoj ayollarning muammolarini tizimli hal qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan muhim chora-tadbirlar o'zaro ishtirokchilarning oila va jamiyatda faolligini oshirish, turmush farovonligini yuksaltirishda muhim omil bo'lmoqda. Bu xayrli ishlar bundan keyin ham izchil davom ettirilishi yangi O'zbekiston ortga qaytmas demokratik islohotlar yo'lida sobit ekanini yaqqol ifoda etadi.

— O'zbekiston yangi tashabbus va innovatsiyalarni keng qo'llamoqda, — deydi "Women in Tech" xalqaro tashkiloti asoschisi Ayumi Mur Aoki. — O'zbekiston xotin-qizlarining zamonaviy kasblarni egallashga intilishi ham juda yuqori. Biz ushbu jarayonning bir qismiga aylanishga harakat qilyapmiz va jamiyatda xotin-qizlarning zamonaviy fanlarga qiziqishini yanada oshirishga ko'maklashyapmiz. Tashkilotimiz Markaziy Osiyo davlatlari ichida birinchi bo'lib O'zbekistonda faoliyatini yo'lga qo'ygan ham mamlakatimizga nisbatan xalqaro miqyosdagi qiziqish ortib borayotganidan dalolat beradi. Zero, O'zbekiston innovatsiyalar va yangilikka moslashuvchanlik, ochiqlik bo'yicha mintaqada namuna bo'lmoqda. Osiyo xotin-qizlari forumida ishtirok etganimdan va O'zbekiston hukumating ayollarga yuksak e'tiboriga shaxsan guvoh bo'lganimdan mamnunman.

Muhokama etilgan masalalar natijasi sifatida forum yakunida Samarqand deklaratsiyasi qabul qilindi. Ushbu hujjatda o'z aksini topgan taklif, tashabbus va g'oyalarni kelgusida nafaqat qit'amiy, balki dunyo miqyosida keng yoyilib, adolatli va teng huquqli dunyo taraqqiyotiga erishishda muhim qadam bo'lajak.

Bahor XIDIROVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Sima Sami Baxus:

"SAMARQAND FORUMI O'ZBEKISTONDA AYOLLAR DAVLATNING USTUVOR MAQSADLARI MARKAZIDA EKANINI TASDIQLADI"

Boshlanishi 1-betda

Shunday qilib, bu tashabbuslar amalga oshirilsa, har qanday iqtisodiyotni rivojlantirish va Barqaror rivojlanish maqsadlarini ilgari surishda yordam beradi. O'zbekiston yetakchisining bu borada tashabbus ko'rsatishi va xotin-qizlar huquqlariga investitsiya kiritayotgani alohida mamnuniyat bag'ishlaydi. Umid qilamizki, forum natijalari va yechimlar nafaqat O'zbekiston, balki butun Osiyo davlatlari tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.

— Forumda gender tenglikni ta'minlash masalalarini muhokamasiga alohida e'tibor qaratildi. Bu, ayniqsa, Osiyo mamlakatlari uchun juda muhim. Mazkur yo'nalishda so'nggi yillarda O'zbekistonda keng ko'lami islohotlar amalga oshirilib, mamlakatimiz xalqaro maydonda "gender chempioni" sifatida e'tirof etilmoqda. Bu borada O'zbekiston tajribasining qaysi jihatlari Osiyo davlatlari uchun dolzarb deb hisoblaysiz?

— Butun dunyoda gender tengligiga faqat bir davlatning o'zida erishib bo'lmaydi. Bu mamlakatlarda o'rtasidagi hamjihatlik va hamkorlikni talab etadi. 2023-yilda o'zimizda zo'raonlikni jinoyat sifatida tan olish va yaqinda saylov kvotasining 30 foizdan 40 foizga ko'tarilishi kabi qonunchilikdagi yutuqlar mintaqadagi va boshqa mamlakatlar uchun ham dolzarb bo'lgan to'g'ri yo'nalishdagi qadamlardir.

CSW68 dan kelib chiqadigan asosiy tavsiyalar Osiyo xotin-qizlar forumi davomida, jumladan, bandlik, ta'lim va kadrlar tayyorlash, gender byudjeti kabi muhim sohalar bo'yicha taqdim etildi. Bu Markaziy Osiyo chegaralaridan tashqarida ham barcha darajalarda juda kuchli davomiylik va mas'uliyatni ko'rsatadi.

"Samarqand birdamlik tashabbusi", "Markaziy Osiyo davlatlari yetakchi ayollar kengashi" yoki Osiyo xotin-qizlari forumi kabi tadbirlar hamkorlikni mustahkamlash va birgalikda ishlashning yorqin namunasidir. Gender tengligini ta'minlash bo'yicha ushbu harakatlar tashabbuskori bo'lgan O'zbekiston hukumati va ayollar huquqlarini himoya qilayotgan Prezident Shavkat Mirziyoyevning sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlaymiz.

— Joriy yil mart oyida BMTning Xotin-qizlar holati bo'yicha komissiyasining 68-sessiyasi bo'lib o'tdi. Sessiya davomida gender tengligiga erishish va kambag'allikka barham berish, institutlar salohiyati va moliyalashtirilishini kuchaytirish, Pekin deklaratsiyasi va Harakatlar platformasi tamoyillarini amalga oshirish orqali xotin-qizlar imkoniyatlarini kengaytirish masalalari muhokama qilindi. Samarqand forumini 68-sessiyaning mantiqiy davomi, deb aytalimiz? Agar shunday bo'lsa, forumda 68-sessiya hujjatlarida belgilangan vazifalar qay darajada o'z aksini topdi?

— CSW68 (BMTning Xotin-qizlar holati bo'yicha komissiyasi) xulosalari xotin-qizlar iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, jumladan, ayollar kambag'alligini tugatish hamda to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar uchun resurslar, shuningdek, ta'lim, qarorlar qabul qilish, mulkka egalik qilish va ayollar boshchiligidagi tashabbuslarni resurslar bilan ta'minlash bo'yicha "yo'l xaritasi"ni belgilaydi.

O'zbekiston Markaziy Osiyo va Ozarbayjon uchun CSW68 bo'yicha ko'p tomonlama maslahatlashuvlarni o'tkazishda muhim rol o'ynadi.

CSW68 dan kelib chiqadigan asosiy tavsiyalar Osiyo xotin-qizlar forumi davomida, jumladan, bandlik, ta'lim va kadrlar tayyorlash, gender byudjeti kabi muhim sohalar bo'yicha taqdim etildi. Bu Markaziy Osiyo chegaralaridan tashqarida ham barcha darajalarda juda kuchli davomiylik va mas'uliyatni ko'rsatadi.

— "BMT — ayollar" tuzilmasining 2022-2025-yillarga mo'ljallangan strategik rejasini butun dunyo bo'yab gender tengligiga erishish va ayollarning imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan. Shu ma'noda, forumda ko'tarilgan masalalar va Samarqand deklaratsiyasi tuzilmaning keyingi rejalarda o'z aksini topadimi?

— Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2022-2025-yillarga mo'ljallangan Ayollar strategik rejasini iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, xotin-qizlarga nisbatan zo'raonlikka chek qo'yish, boshqaruv va qarorlar qabul qilishda ishtirok etishni nazarda tutadi.

Strategik rejada forumda ko'rib chiqilgan ko'plab yo'nalishlar qayd etilgan. Munosib mehnat va tadbirkorlikdan tortib, "yashil" iqtisodiyotda yetakchilikni ta'minlash, ijtimoiy normalarni o'zgartirish, kambag'allikni qisqartirish, gender tengligini moliyalashtirishgacha bo'lgan muhim yo'nalishlar o'z aksini topgan.

Biz barqaror rivojlanish va gender tengligini ta'minlash uchun nafaqat ushbu forumda, balki undan keyin ham O'zbekiston hukumati bilan hamkorlikni davom ettirish tarafdorimiz.

"Dunyo" AA
Samarqand

"Oltin qalam":

O'ZBEK JURNALISTIKASIDA YANGI AVLOD TANTANASI

Boshlanishi 1-betda

Tantanalari tadbirda "Oltin qalam" Milliy mukofoti Tashkiliy qo'mitasi raisi, O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi raisi vazifasini bajaruvchi Xolmurod Salimov mamlakatimizda axborot sohasida keng ko'lami islohotlar olib borilayotgani, jurnalistlarning jamiyatdagi faolligini oshirish, ularni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratilayotganiga to'xtalib, jumladan, shunday dedi:

— "Oltin qalam" XVIII Milliy mukofoti uchun xalqaro tanlovda 600 ga yaqin mahalliy va xorijiy OAV vakillari 4 mingdan ziyod ijodiy ishlari bilan ishtirok etdi. Bu, o'z navbatida, jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlar, yangilanishlar jarayonida jurnalistlarning faolligini ko'rsatadi. Jahon matbuoti erkinligi kuniga bag'ishlangan "Oltin qalam" Milliy mukofoti har yili an'anaviy tarzda o'tkazib kelimoqda. Tanlov tobora takomillashib, qamrovi kengayib borayotgani aqonillir.

Darhaqiqat, o'tgan yillar davomida Bosh milliy mukofot va asosiy nominatsiyalar qatoriga internet-jurnalistika yo'nalishi kiritildi. 2021-yildan boshlab esa "Chet ellik jurnalistning O'zbekiston haqidagi eng yaxshi materiali uchun" nominatsiyasi asosiy mukofotlar qatoriga qo'shildi. Zamon talabidan kelib chiqqan holda, taklif va tavsiyalar asosida "Oltin qalam" tanlovi nizomiga ham o'zgartirishlar kiritildi.

Prezidentimizning 2022-yil 27-iyundagi "Ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlash va jurnalistika sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosi doirasida 2023-yildan boshlab "Oltin qalam" tanlovi rag'batlantiruvchi



Hakim Yo'ldoshev olgan suratlardir.

nominatsiyalari 5 tadan 12 taga ko'paytirildi.

Jurnalistlar uyushmasi ma'lumotiga ko'ra, bu yilgi tanlovga televideniye yo'nalishida mamlakatimizdagi davlat va nodavlat



telekanallarida faoliyat olib borayotgan 98 nafar jurnalist o'z materiallarini taqdim etgan bo'lsa, radio yo'nalishida 26 nafar, bosma OAV yo'nalishida esa eng ko'p — 178 nafar, internet nashrlari yo'nalishi bo'yicha 75 nafar, "Chet ellik jurnalistning O'zbekiston haqidagi eng yaxshi materiali uchun" nominatsiyasida ham har yilgidan ko'p — 40 dan ortiq davlatdan 100 ga yaqin jurnalist qatnashgan. Odatda har yili jamoaviy qatnashuvchi tahririyyatlar soni 5-10 ta bo'ladi. Joriy yilda ularning soni 3 barobar oshgan, ya'ni 40 taga yaqin tahririyyat tanlovga ijodiy ishlari taqdim etgan.

"Oltin qalam" XVIII Milliy mukofoti uchun xalqaro tanlovda "Publitsistik janrdagi eng yaxshi kitob uchun" yo'nalishi 12 ta nominatsiyadan biri sifatida belgilangan. Ushbu nominatsiya bo'yicha 22 nafar jurnalist 30 ga yaqin publitsistik janrdagi kitoblari bilan qatnashdi.

Tanlovning "Eng yaxshi fotoreportaj uchun" nominatsiyasi g'olibi esa 47 nafar fotojurnalistning 1500 ga yaqin ijodiy ishlarini baholash orqali aniqlandi. Bu yo'nalishda ishtirokchilar soni o'tgan yilgiga nisbatan qariyb 3 barobar oshgani fotojurnalistlarning jamiyat hayotida faolligini dalolatidir.

"Oltin qalam" XVIII tanlovda xalqaro hamkorlar tomonidan taklif etilgan rag'batlantiruvchi nominatsiyalar e'lon qilindi ham e'tiborga molik. Xususan, Xitoy Xalq Respublikasining O'zbekistondagi elchixonasi tomonidan joriy qilingan 2 ta nominatsiya, Turkiya Respublikasining O'zbekistondagi elchixonasi tomonidan kiritilgan 1 ta nominatsiya bo'yicha ijodiy ishlar qabul qilindi.

Va nihoyat boshlovchilar hayajonli lahzalar — Bosh milliy mukofotni taqdim etish onlari yaqinlashganini e'lon qildi.



Ushbu mukofot "UzReport TV" telekanali jamoasiga nasib etgani haqidagi xabar marosim ishtirokchilari tomonidan davomiy qarshalar bilan kutib olindi. G'olib jamoaga Prezident sovg'asi — "Tracker" avtomobili, maxsus statuetka va diplom tantanalari ravishda topshirildi.

— Bu mukofot nafaqat bizning jamoaga, balki yurtimizdagi nodavlat telekanallarga bo'lgan e'tibordan dalolat, — deydi telekanal bosh muharriri Saidolimxon Turdiyev. — Ayni davrimiz hushyor zamon darakchilari, fidoyi hamkasblarimiz — telejurnalistlar



har lahzada kreativ fikrlash, tezkorlik va xolislikni talab qilmoqda. Ana shu mas'uliyat hissi bilan yangi O'zbekiston jurnalistikasiga o'z hissasini qo'shib kelayotganimizdan juda mamnunmiz.

Tanlovda "Yangi O'zbekiston" gazetasi tahririyyatining fidoyi jurnalisti Gulchehra Durdiyevaning "Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar eng yaxshi yoritilgan materiallar uchun" nominatsiyasi g'olibi bo'lgani jamoamizni juda quvontirdi.

— O'ttiz besh yildan buyon jurnalistika sohasida faoliyat yuritib kelyapman, — deydi Gulchehra Durdiyeva. — Biroq faoliyatimning eng yorqin va shiddatli davri keyingi yillarda sohamizda yaratilgan muhit va ro'y bergan o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq. Men bu yillar davomida davlatimiz rahbarining qalam ahliga bo'lgan katta ishonchi, mehri va yuksak talablardan ruhlandim. "Yangi O'zbekiston" gazetasi tahririyyatidagi ustozlarim, hamkasblarim saboqlari va tajribalaridan bahramand bo'ldim. Bu mukofot sevimli jamoamizga berilgan mukofotdir.

G'oliblarga mukofot topshirayotib taniqli jurnalist, O'zJOKU rektori Sherzodxon Qudratxo'ja bir haqiqatni ta'kidlab o'tdi: "Eng xavfli kasblar qatorida sanaladigan, haq so'z va teran nigohni izlab o'z jonini ham baxshida etishga shay turadigan jurnalistikaning bahosi vaqt o'tgani sayin oshib bormoqda. E'tibor bergan bo'lsangiz, odiygina nominatsiyalarga belgilangan summalar bir vaqtlar eng oliy mukofotlarga belgilangan miqdordan ancha oshgan. Zero, bugungi kunda jurnalist ham mashqatli mehnatiga yarasha hayotdan zavqlanishga, yaxshi sharoitlarda yashab, ijod qilishga haqlidir".

Tadbir yakunida g'oliblarning el-yurt va ustozlar e'tirofidan ruhlangan yuz-ko'zlariga boqib, biz-da samimiy tilaklar bildirdik. Chindan ham global dunyoning qalqib turgan, dolzarbligini bilan hushyor va sergak qalblarda tirab turgan mavzularni dadil ko'tarib chiqayotgan sharaflil faoliyatingiz hamisha e'tibor va rag'batga munosibdir.

Qalamingizga aslo ko'z tegmasin, aziz hamkasblar!

Muxtasar TOJIMAMATOVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

ISLOHOTLAR AMALDA

ISHGA KIRISH UCHUN
HALIYAM TANISH IZLAYAPSIZMI?

Meritokratiya – korrupsiya kushandasi

Saidfarrox ISLOMOV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi direktori o'rinbosari

Joriy yilning 4-martidan boshlab tanlov tizimiga o'zgartirish kiritildi. Endi nomzodlar vakant o'rinni egallash uchun bir vaqtning o'zida 5 tagacha lavozimga ariza yubora oladi. Yakuniga yetgan har bir tanlovdan so'ng nomzodda boshqa vakansiyaga ariza yuborish imkoniyati saqlanib qoladi. Shuningdek, bu yil Ijtimoiy himoya milliy agentligi vazirligi va idoralar hamda korxonalar, tashkilotlar bilan hamkorlikda vacancy. args.uz portali orqali nogironligi bo'lgan shaxslarga mo'ljallangan vakant lavozimlar uchun ham ochiq tanlovlar e'lon qilindi.

Boshlanishi 1-betda

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi mamlakatimizda muqobil bo'lmagan axborot tizimi va resurslarni ishlab chiqqida hamda sohaga bosqichma-bosqich joriy etib kelmoqda. Xususan, davlatimiz rahbarining 2023-yil 24-maydagi "Ma'muriy islohotlar doirasida raqamli texnologiyalar sohasida davlat boshqaruvinu samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga asosan, davlat fuqarolik xizmati sohasida inson resurslarini boshqarish (hrm.args.uz) axborot tizimi amaliyotda qo'llandi.

Bugun ushbu tizimga 2668 ta davlat organi va tashkiloti ulangan, 93,5 mingga yaqin xodimning elektron ma'lumoti shakllantirildi. Kadrlarga oid hujjatlarni elektron shaklda yuritish maqsadida hrm.args.uz va edo.ijro.uz axborot tizimlari o'zaro integratsiyalandi. Shuningdek, hrm.args.uz tizimi orqali UzASBO dasturiy majmuasi va E-qaror tizimi ma'lumot kiritish imkoniyati yaratildi.

Bundan tashqari, davlat xizmati tizimini raqamlashtirish, davlat xizmatchilarining yuridik va jismoniy shaxslar bilan munosabatini yagona elektron tizim orqali tashkil etish bo'yicha jahon tajribasi o'rganildi. Natijada Osiyo mamlakatlarida bu borada o'ziga xos model borligi va u davlat faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashga xizmat qilayotgani aniqlandi. Mazkur tizim Koreya Respublikasi, Singapur va Yaponiyada juda muvaffaqiyatli joriy etilgan. Davlat xizmatchilari uchun mo'ljallangan dasturlar "Raqamli hukumat"ning tarkibiy qismi sifatida shakllantirilgan va mamlakatning yagona interaktiv portaliga integratsiyalangan.

Yevropaning aksariyat mamlakatlarida ham ma'muriy islohotlar va davlat xizmatchilarining fuqarolarga xizmat ko'rsatishini samarali tashkil etishda raqamli texnologiyalarni keng joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ko'p hujjatlar 2024-yilda mahalliy dasturiy ta'minotga asoslangan aloqa, o'zaro aloqa va hamkorlik uchun xavfsiz hamda yagona xizmatlardan foydalanish tizimini yo'lga qo'yish rejalashtirilgan.

Xodimlarni boshqarish jarayonini raqamlashtirish, hujjatlarni elektron ko'rinishda yagona tizimda jamlash hamda hisobotlar tayyorlashni avtomatlashtirish maqsadida Rossiya va G'arb mamlakatlarida joriy etilgan "1S" va "Boss kadrovik", "Galaktika" axborot tizimlari hamda yetakchi dasturiy ta'minotlar ishlab chiqaruvchi SAP kompaniyasi yaratgan dasturiy mahsulotlar o'rganib chiqildi va tahlil qilindi.

"Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonunga asosan avtomatlashtirilgan samaradorlik.uz yagona axborot tizimi ishlab chiqildi, amaliyotga bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Davlatimiz rahbarining 2019-yil 3-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga muvofiq, davlat fuqarolik xizmatchilari vakant lavozimining yagona ochiq portali (vacancy.args.uz) faoliyati yo'lga qo'yildi.

Portal yordamida masofadan turib nomzod tanlagan lavozimga ariza va hujjatlar topshirish, taqdim etiladigan ma'lumotnomalar sonini qisqartirish, oliy ta'lim va mehnat tajribasi to'g'risidagi ma'lumotlarni avtomatik shakllantirish mumkin. Shuningdek, suhbat bosqichini onlayn tarzda ochiq va shaffof o'tkazish, tanlov bosqichlaridagi natijalar to'g'risidagi ma'lumotlarni portaldagi shaxsiy kabinet yoki telegram-bot orqali olish imkoni mavjud.

Joriy yilning 4-martidan boshlab tanlov tizimiga o'zgartirish kiritildi. Endi nomzodlar vakant o'rinni egallash uchun bir vaqtning o'zida 5 tagacha lavozimga ariza yubora oladi. Yakuniga yetgan har bir tanlovdan so'ng nomzodda boshqa vakansiyaga ariza yuborish imkoniyati saqlanib qoladi. Shuningdek, bu yil Ijtimoiy himoya milliy agentligi vazirligi va idoralar hamda korxonalar, tashkilotlar bilan hamkorlikda vacancy.args.uz portali orqali nogironligi bo'lgan shaxslarga mo'ljallangan vakant lavozimlar uchun ham ochiq tanlovlar e'lon qilindi.

Shuningdek, nazariy bilim va psixologik holatni baholash maqsadida davlat xizmatchilarini sinovdan o'tkazish platformasi (test.args.uz) ishga tushirilgan. Uning yordamida bir vaqtning o'zida 1000 nafargacha nomzod sinovdan



natijasi 3 oy tizimda saqlanadi. Nomzod shu ball bilan boshqa vakant o'rinni uchun tanlovda qatnashishi, malaka talabiga to'g'ri kelgan taqdirda ushbu bosqichdan avtomatik o'tishi mumkin. Shu tariqa nomzodlarning ortiqcha ovoragarchiligiga chek qo'yildi, test sinoviga keluvchilar soni to'rt barobar qisqardi.

Ayni paytda mahallalarda hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi va xot-qizlar faollari orasidan yuqori natijaga erishgan nomzodlarni tanlash imkonini beradigan Milliy kadrlar zaxirasi (zaxira.args.uz) axborot tizimi ham ishga tushirilgan. Buyuk Britaniya, BAA, Janubiy Koreya kabi davlatlar tajribasidan kelib chiqib, zaxiraga olingan shaxs haqidagi barcha ma'lumot ushbu tizimda aks ettirilishi belgilandi.

Ushbu tizimda mahalliy davlat hokimiyati organining 991 nafar, davlat organi va tashkilotining 417 nafar, mahalla fuqarolar yig'ini 1005 nafar, faol tadbirkorlardan 52 nafar nomzodning ma'lumoti jamlandi. Davlat

maqsadida "Davlat xizmatchisi" mobil ilovasining birinchi tahriri ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi.

Ushbu ilova orqali davlat xizmatchilariga oid barcha ma'lumotdan markazlashgan holda foydalanish, jumladan, vakant ish o'rinlari, test sinovi natijalari, ish beruvchi tashkilot bilan o'zaro elektron aloqa yo'lga qo'yildi. Davlat fuqarolik xizmatchisining yuridik hamda jismoniy shaxslar bilan ish faoliyatiga oid munosabatlarni raqamlashtirish yuzasidan tahlil o'tkazildi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining faoliyatidan qoniqish darajasini o'rganish maqsadida opros.args.uz so'rovnomma platformasi ishlab chiqildi. Uning yordamida mamlakatning barcha hududidagi fuqarolar o'rtasida 4 yo'nalishda 22 savoldan iborat so'rovnomma o'tkazildi.

Sektor rahbarlari faoliyati samaradorligini baholashning ko'rsatkichlaridan biri sifatida aholining qoniqish darajasini aniqlash uchun yiliga bir marta mamlakatdagi barcha mahallada istiqomat qiluvchi odamlar orasida anonim ijtimoiy so'rovnomma o'tkazish tartibi yo'lga qo'yildi. Shaffoflik hamda natijalarni hisoblashda tezkorlikni ta'minlash uchun opros.1.args.uz mobil ilovasi ishlab chiqildi va jarayon to'liq raqamlashtirildi. Joriy yil o'tkazilgan so'rovnomma mamlakat bo'yicha jami 123 mingdan ortiq respondent qatnashdi. Shundan 74 mingi erkak, 49 mingi ayollardir.

Agentlik axborot tizimlarini "Raqamli hukumat" tizimining ma'lumotlarni qayta ishlab markazi yangi, zamonaviy hamda Teir 3 sertifikatiga ega xavfsiz serverlari (Data center)ga bosqichma-bosqich o'tkazish, xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar serverlaridan nusxa ko'chirib, yangi serverlarga joylashtirish ishlari bajarildi.

Hozir Data markazga ko'chirib o'tkazilgan barcha axborot tizimining barqaror ishlashini ta'minlash yuzasidan sinov o'tkazilib, xavfsizlikni ta'minlash, shaxsga oid ma'lumotlarni himoyalash tizimi takomillashtirilmog'na.

Agentlikning istiqboldagi rejalari belgilab olingan.

Birinchiidan, davlat fuqarolik xizmati sohasiga "Raqamli davlat fuqarolik xizmati platformasi" joriy etildi.

Ikkinchiidan, davlat fuqarolik xizmatchilarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish dasturlarini amalga oshirishga mo'ljallangan Yagona onlayn masofaviy ta'lim platformasi ishlab chiqildi. Unda davlat va xususiy sektordagi qayta tayyorlash va malaka oshirish muassasalarining yagona platformasi ishga tushirildi. Shuningdek, davlat fuqarolik xizmatchisi malakasini oshirish milliy kontent bazasi yaratildi.

Uchinchiidan, Milliy kadrlar zaxirasi portalida nomzodlar faolligini o'rganish hamda sun'iy intellekt yordamida nomzodlarni tanlab olish va solishtirish yo'lga qo'yildi.

To'rtinchiidan, davlat fuqarolik xizmatchilari to'g'risidagi ma'lumotlar uchun tahlil tizimini yo'lga qo'yish maqsadida BI (Business intelligence) tahlil kompleksi davlat fuqarolik xizmatiga joriy etildi.

Davlat fuqarolik xizmatida raqamli xizmatning joriy etilishi har tomonlama manfaati bo'lishi, ayniqsa, korrupsiyaning oldini olishi, turli ovoragarchilik va qog'ozbozliklarga barham berilishi bilan ahmiyatlidir.

INSON QADRI AZIZ

Poytaxtimizda qurolli mojarolar zonalaridan qaytganlarni reabilitatsiya va reintegratsiya qilish masalalari bo'yicha Markaziy Osiyo mintaqaviy ekspertlar kengashining birinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Mazkur tadbir 2022-yil 3-4-mart kunlari Toshkentda o'tkazilgan yuqori darajadagi "BMT global aksiterror strategiyasini amalga oshirish bo'yicha qo'shma harakatlar rejasi doirasida Markaziy Osiyo mamlakatlari mintaqaviy hamkorligi" xalqaro konferensiyasida Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan va xalqaro sheriklar tomonidan keng ko'lamda qo'llab-quvvatlanayotgan tashabbus doirasida tashkil etildi.

Ular jamiyatga to'liq integratsiyalashuvi uchun barcha shart-sharoit yaratilgan, — deydi siyosatshunos Sayyididdin Jo'rayev. — Ta'lim, tibbiy va ijtimoiy dasturlardan foydalanish imkoniyati ta'minlangan. Ayrim repatriantlarga tekis uy-joy, past foizli kreditlar, shaxsiy biznes uchun jihozlar berildi hamda ijtimoiy yordam ko'rsatildi. Jahon hamjamiyati O'zbekistonning o'z fuqarolarini mojarolar zonalari, shu jumladan,

ZIMMAGA OLINGAN
MAS'ULIYAT

O'zbekistonning o'z fuqarolarini qurolli mojarolar hududlaridan inson huquqlariga rioya qilgan holda qaytarish namunasi e'tirofi

Kengashning asosiy vazifasi radikal g'oyalar ta'siriga tushib qolgan fuqarolarni reabilitatsiya va reintegratsiya qilish dasturlarini takomillashtirish hamda mamlakatimizda terrorizm targ'ibotiga qarshi kurashish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Yig'ilishda Markaziy Osiyo davlatlari, xalqaro tashkilotlar, BMT va YXHTning yuqori martabali mansabdor shaxslari, shuningdek, qaytganlarni reabilitatsiya va reintegratsiya qilish, xususan, jinoyi harakatlar soid etishda gumon qilinayotgan shaxslarni javobgarlikka tortish sohasi mutaxassislari qatnashdi.

Iroq va Suriyadan vataniga qaytarish va reintegratsiya bo'yicha harakatlarini oqlashdi.

Xalqaro ekspertlar fikricha, bu sa'y-harakatlar bolalarni jabrlanuvchilar sifatida tan olishga hamda bolalar va ayollar uchun gender masalalar inobatga olingan hamjamiyatlar darajasidagi reintegratsiya dasturlari yordamida ularning shaxsiy manfaatlarini himoya qilish zarurligiga asoslangani bilan nihoyatda ahamiyatidir.

BMT Bosh Assambleyasi 78-sessiyasida taqdim etilgan va xorijiy hamkorlar tomonidan bir ovozdan qo'llab-quvvatlangan



O'zbekiston Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti direktori Eldor Arifov, BMT Bosh kotibi o'rinbosari, Terrorizmga qarshi kurash boshqarmasi rahbari Vladimir Voronkov va boshqalar mazkur tadbir qurolli mojarolar hududlaridan qaytganlarni reabilitatsiya va reintegratsiya qilish hamda mintaqadagi davlatlar hamkorligini institutsionallashtirish sohasida Markaziy Osiyo davlatlari o'zaro tajriba almashishi uchun o'ziga xos maydonga aylanganini ta'kidladi. Mintaqa davlatlarining yuksak darajadagi birlashuvi hamda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash uchun mas'uliyatni birgalikda zimmasiga olishga tayyorligini yana bir bor ko'rsatayotgani alohida qayd etildi.

BMT ma'lumotiga ko'ra, terrorchi guruhlar safiga qo'shilish uchun 60 dan ortiq davlatdan 43 mingdan ziyod inson Suriya va Iroqqa yo'l olgan. 5 yil oldin mazkur tashkilot hududiy mag'lubiyatga uchragan. Shundan buyon o'n minglab erkak, ayol va bolalar hamon Suriya shimoli-sharqidagi lager va qamoqxonalarda saqlanmoqda.

O'zbekistonning mojarolari hududlardan o'z fuqarolarini repatriatsiya va reintegratsiya qilish bo'yicha "Mehr" operatsiyalari terrorizm va tahdidlarga qarshi kurashish sharoitida inson huquqlarini ta'minlashning yorqin ifodasi sifatida xalqaro hamjamiyatga namuna bo'lib xizmat qilmoqda.

2024-yil mart oyi holatiga ko'ra, Markaziy Osiyo davlatlari tomonidan uyushtirilgan gumanitar operatsiyalar davomida 2 mingdan ortiq odam mintaqaga qaytarilgan.

Yana bir muhim jihat. BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining 2021-yil iyul oyida Jenevada bo'lib o'tgan 47-sessiyasida O'zbekiston tomonidan amalga oshirilayotgan repatriatsiya dasturi fuqarolari Suriya va Iroqdagi lagerlarda qochqin maqomiga ega ko'plab mamlakatlardan uchun namuna bo'lishi ta'kidlandi. O'zbekiston oilaviy qadriyatlar va jamiyatdagi yaqin ijtimoiy munosabatlarga asoslangan yuksak bahoga mos keladigan noyob yondashuvni qayd etildi.

mazkur tashabbus mintaqaviy hamkorlikni institutsionallashtirishning noyob tajribasini ifodalaydi va sohadagi qo'shma faoliyat samaradorligini oshirishga ko'maklashadi.

O'zbekiston Prezidenti toshirig'iga binoan 5 marta o'tkazilgan "Mehr" operatsiyalari doirasida, asosan, ayollar va bolalar Yaqin Sharqdagi qurolli mojarolar hududidan yurtimizga qaytarildi. O'zga yurtlarda og'ir hayotiy davmi boshidan o'tkazgan va insonlarga tibbiy, psixologik, moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatilmog'na. Ushbu amaliy ishlar O'zbekiston fuqarolarini hamisha o'z davlati va Konstitutsiyasi himoyasida ekanidan dalolat beradi.

Mazkur insonparvarlik missiyasi Markaziy Osiyo davlatlarining xalqaro hamjamiyat bilan hamkorligi, inson huquqlarini himoya qilish va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro majburiyatlarini bajarishga tayyorligini yana bir bor ko'rsatayotgani alohida qayd etildi.

Yig'ilishda "Repatriantlarni reabilitatsiya va reintegratsiya qilishda davlat va umumiy ijtimoiy yondashuvning ahmiyatini", "Mahalliy jamoalar va jamoat tashkilotlarining sohadagi o'rni" kabi muhim mavzularda seksiyalar tashkil etildi.

BMT shafeligida xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar ishtirokida Mintaqaviy ekspertlar kengashining birinchi yig'ilishi o'tkazilayotgani O'zbekistonning ushbu yo'nalishdagi siyosati jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilganidan dalolat beradi.

Tadbir davomida sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot va ta'lim sohalarida reabilitatsiya va reintegratsiya masalalari bo'yicha fuqarolik jamiyati tashkilotlari yondashuvlari, Markaziy Osiyoda BMT Global aksiterror strategiyasini amalga oshirish bo'yicha qo'shma harakatlar rejasining bajarilishi, reabilitatsiya bo'yicha keng qamrovli, maqsadli dasturlarni ishlab chiqish, shuningdek, fuqarolik jamiyatining repatriantlar reintegratsiyasidagi barqaror ishtirokini ta'minlash masalalari muhokama qilindi.

Lutfulla SUVONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

2024-yil 15-may, 93-son



TAHLIL

TURIZMNI “YASHILLASHTIRISH”

Bu nima uchun kerak va qanday bajariladi?

Statistika agentligi ma'lumotiga ko'ra, o'tgan yili O'zbekistonda 6,6 million chet ellik sayohat kelgan. Bu 2022-yilga nisbatan 1,4 million ko'p, degani. Shu raqamdan ham mamlakatimizning jozibadorligini oshirish, iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishda turizmning ahamiyati yil sayin oshib borayotgan yuqori darajada qayd etildi. Shu bois, turizm tarmog'ini xalqaro standartlarga mos ravishda izchil isloh qilish zamon talabidir. Buning asosiy shartlaridan biri esa sayohatlikni “yashillashtirish” – ekologik toza texnologiyalarga o'tish.

bir mehmonxona — Marina Bay Sands esa yorug'lik, istish tizimi va suv ta'minoti ustidan intellektual nazorat o'rnatish orqali energiya iste'molini naq 40 foiz qisqartirishga muvaffaq bo'lmoqda.

Yaponiyaning Kawasaki King Skyfront Tokyo Rei mehmonxonasi energiya ehtiyojini 100 foiz chiqindi hisobidan qoplaydi. Chiqindini qayta ishlash natijasida 82 xonadonga yetarli energiya ishlab chiqariladi. U dunyodagi ilk uglerodsiz mehmonxona bo'lib, energiya 30 foizini plastik, 70 foizini esa oziq-ovqat chiqindisidan oladi.

Kaliforniyadagi H, mehmonxonasi antiqa tajribani yo'lga qo'ygan. Plastik qadoqdan foydalanishni cheklash maqsadida har bir xonada ko'p martalik suv idish qo'yilgan. Mehmonlar ularni har bir qavatda bepul gazli va gazlanmagan suv taklif qiladigan shoxobchalardan to'ldirib olishi mumkin.

Londondagi Cavendish mehmonxonasi velosipedda kelgan mehmonlarga bepul turaroh xizmatini taklif qiladi. Ekologik toza transport vositalaridan foydalanadigan mijozlar uchun esa mehmonxona xizmatlariga 50 foiz chegirma mavjud.

Dunyo bo'ylab mehmonxonalar tarmog'iga ega Hilton Worldwide kompaniyasi Global Soap Project tashkiloti bilan hamkorlikni yo'lga qo'ygan. Unga ko'ra, mehmonxonalarda ortib qolgan sovun qoldig'i qayta ishlanib, qashshoq aholiga tarqatiladi.

Kaliforniyadagi yana bir mehmonxona Uoldorf Astoria esa suvdan oqilona foydalanish yo'lini topgan. Yuvinish maqsadida ishlatilgan suv 1500 gallon hajmga ega maishiy suvni qayta ishlash tizimida tarkibdan tozalanadi va hududdagi landshaftni sug'orish maqsadida qo'llanadi.

oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarorida 2030-yilgacha issiqxonaga gazlari tashlanmalarini 35 foizga qisqartirish, sanoatda energiya samaradorligini 20 foizga ko'paytirish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish unumdorligini oshirish, 1 million gektargacha maydonida suv tejovchi sug'orish texnologiyasini joriy etish rejalashtirilgan. Shuningdek, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 gigavattga va umumiy elektr energiyasidagi ulushini 30 foizdan oshirish, qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlanishini 60 foizga yetkazish kabi maqsadlar belgilangan.

Davlat yashil energiya stansiyalaridan muayyan narxda energiya sotib olish majburiyatini o'z zimmasiga olgan, 2026-yilgacha umumiy quvvati 8 ming megavatt bo'lgan shamol va quyosh elektr stansiyalarini ishga tushirish rejalashtirilgan, muqobil energiyadan foydalanilgan uchun imtiyozlar joriy etilayotgani e'tiborga molik.

Turizmni “yashillashtirish” masalasida esa Barqaror turizm milliy assotsiatsiyasi tashkil qilinganini e'tirof etish lozim. Ayniqsa, joriy yil fevralda BMT Bosh Assambleyasida O'zbekiston tashabbusi bilan “2027-yil — Xalqaro barqaror va yashovchan turizm yili” rezolyutsiyasining ma'qullangan muhim voqea bo'ldi. Mazkur hujjatda ekologiya, bioxilma-xillikni asrash va atmosfera ifloslanishini kamaytirish yo'lida “yashil” turizmni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Bu mamlakatimizning ekologik qadriyatlariga asoslangan turizmni tashkil etish borasidagi qat'iyatini yana bir karra tasdiqladi.

yuritishi mahalliy mehmonxonalar uchun tajriba namunasi bo'lib xizmat qiladi.

Turizmni “yashillashtirish”ga qaratilgan sa'y-harakatlar natijasi o'laroq, mamlakatda eko-innovatsion mehmonxonalar tajribasi ommalashmoqda. Birgina misol: Andijon shahridagi “Chinoor” mehmonxonasi 88 o'ringa ega bo'lib, to'liq muqobil energiya hisobiga ishlaydi. Buning uchun binoning tom qismidagi 180 kvadrat metr maydonga quyosh paneli o'rnatilgan. Natijada bir yilda 300 ming kilovatt elektr energiyasi, 240 ming kub metr tabiiy gaz resurslarini tejashga erishilmoqda.

Ekologik innovatsion mehmonxona qanday tashkil etiladi?

Tabiat muhofazasi bilan shug'ullanuvchi “Green Seal” tashkiloti tadqiqotiga ko'ra, o'rtacha 150 xonaga ega mehmonxona bir haftada sarflaydigan elektr energiyasi 100 ta xonadonni ta'minlashga yetadi. Xo'sh, ekologik mezonlarga asoslangan innovatsion mehmonxona qanday talablarga javob berishi lozim?

Mehmonxona biznesida yashil texnologiyalarni joriy etish borasida Jahon turizm tashkiloti (UNWTO) bir qator tavsiyalar ishlab chiqqan.

Ekologik innovatsiyaning eng birinchi sharti muqobil energiya manbalari (quyosh, shamol, suvdan foydalanishdir. UNWTO tahliliga ko'ra, mehmonxona biznesi turizm sektoridagi eng ko'p energiya sarflovchi tarmoqdir. Bu borada O'zbekiston sharoitida quyosh paneli maqbul yechim bo'la oladi.

Ikkinchidan, mehmonxonaning ichki tuzilmasi yopiq siklga — chiqindilarni qayta ishlash, ikkilamchi foydalanish yoki tiklashga asoslanishi kerak. Bunda organik chiqindilarni mahalliy landshaft uchun o'g'it sifatida ishlatish, bino qurilishi va interyerni tashkil qilishda bambuk kabi ekologik toza materiallardan foydalanish singari yechimlarni ko'rib chiqish mumkin.

Uchinchidan, resurslardan oqilona foydalanish, ya'ni plastikdan voz kechgan holda qadoqsiz mahsulotlarga e'tibor qaratish, faoliyatda avtomatlashuv va elektronlashtirishni kuchaytirish orqali qog'oz sarfini kamaytirish dardor.

To'rtinchidan, mijozlarga mahalliy ishlab chiqarilgan sarxil oziq-ovqat mahsulotlarini taklif qilish zarur. Bu orqali yegulik mahsulotlarini tashish va saqlashga doir energiya sarfini qisqartirish bilan birga mahalliy iqtisodiyotni rag'batlantirish mumkin.

Beshinchidan, faoliyatini tashkil etishda mahalliy ishchi kuchi va korxonalar xizmatidan foydalanish transport ehtiyojlari va karbonat angidrid chiqindisini kamaytiradi.

Oltinchidan, samarali infratuzilma hisobiga suv sarfini minimallashtirish lozim. Buning

uchun yuvinish xonalarini jihozlashda suv sarfini avtomatik nazorat qiladigan, kuchli bosim hisobiga kamroq suv ishlatish imkonini beradigan santexnika vositalaridan foydalanish talab etiladi. Shu bilan bir qatorda, ichimlik suv aylanishini ta'minlash, yomg'ir suvi to'plash, tuproq namligini oshiruvchi o'simliklarni parvarishlash, xonalarni bezashda qiyin tiklanuvchi materiallardan ko'ra xonaki o'simliklarga ko'proq e'tibor qaratish lozim.

Yettinchidan, ekologik toza transport ta'minoti yo'lga qo'yish kerak. Shu maqsadda elektromobilga ega mijozlar uchun quvvatlash stansiyalari tashkil etish, velosiped, skuter yoki elektromobil kabi ekoneutral vositalar ijarasini yo'lga qo'yish samarali yechim bo'la oladi.

Eko-innovatsion mehmonxonani tashkil etishda ZEB (zero-energy building — energiya sarfi nolga teng bo'lgan bino) tamoyili ham muhim. Qurilishda tobora ommalashib borayotgan bu tamoyilga ko'ra, bino o'z joyida yil davomida tiklanuvchi manbalardan foydalanib, energiya ishlab chiqarish va iste'mol qilishni nazarda tutgan holda loyihalashtiriladi. Ishlab chiqariladigan energiya miqdori sarflanadigan energiya miqdoriga teng yoki ko'proq bo'lsa, bu energiya sarfi nolga teng bino hisoblanadi.

Shuningdek, ekologiya faollari, muhoza qiluvchi tashkilotlar mehmonxonalarimizning foydalanish bilan mulqotdagi imkoniyatidan foydalanishda resurslarni oqilona ishlatish (masalan, yuvinish xonasida suvni tejash haqidagi kichik eslatma), tabiat qo'ymida atrofga zarar yetkazmagan holda hordiq chiqarishga rag'batlantirish (foydalanilgan plastik idishlarni qayta ishlov uchun olib kelib topshirgan mijozlarga bonus taqdim etish) kabi targ'ibot harakatlarini yo'lga qo'yishni ham tavsiya qiladi.

Biznes egalari uchun manfaatli

Hisob-kitoblarga ko'ra, energiyatejamkor texnologiyalar elektrga ehtiyojini 10 foizdan 40 foizgacha tejash imkonini beradi. Shuningdek, zamonaviy santexnika va suv tozalash tizimlari suv sarfini 20-30 foizga kamaytirishi mumkin. Bu esa xarajatlar qisqarishini ifodalaydi.

Qolaversa, ekologik mezonlarga ustuvor ahamiyat qaratish orqali mehmonxona biznesi tabiat himoyasiga hissa qo'shish bilan birga, raqobatbardoshligini ham ta'minlay oladi.

Booking.com ma'lumotiga ko'ra, dunyo bo'yicha sayohatning 73 foizi sayohatni rejalashtirishda mehmonxonaning ekologik mezonlarga muvofiq darajasini inobatga oladi. Demak, ekologiya muhofazasi butun dunyoda qadriyat o'laroq tobora ommalashib bormoqda. Ekologik innovatsion mehmonxonalar, ta'bir joiz bo'lsa, urfga kirib borayotganini hisobga olsak, yashil texnologiyalar mehmonxonalar reytingini yaxshilash, innovatsion va ijtimoiy mas'uliyatli obyekt sifatidagi jozibadorligini oshirishni kafolatlaydi.



Sayyora SAFOYEVA,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori

Global miqyosdagi vaziyat

2023-yili global turizmning iqtisodiyotdagi ulushi 3,3 trillion dollarni tashkil etdi. Bu global yalpi ichki mahsulotning 3 foiziga teng. Shu yili xalqaro turizm hajmi pandemiyagacha bo'lgan ko'rsatkichga maksimal darajada (88 foiz) yaqinlashgani qayd etildi. Dunyo bo'yicha 1,3 milliard kishi sayohat maqsadida safar qilgan. Mazkur raqamlar global iqtisodiyotda turizmning o'rni oshib borayotgani, o'z navbatida, iqlimga ta'sir doirasini ham kengayayotganini ko'rsatadi. Bu BMTning 2019-yildagi “Turizm sektorida transport ta'siridagi CO₂ tashlanmalari” nomli hisobotida ham ta'kidlangan.

Har yili global miqyosda ishlab chiqariladigan CO₂ (karbonat angidrid) chiqindisining 5 foizi turizm sektoridagi transport, qurilish, o'qatlash tarmog'ini, yer o'zlashtirish amaliyoti va hokazolarga to'g'ri keladi. O'z navbatida, bu ko'rsatkichning 2 foizini bevosita mehmonxona biznesi tashkil etadi. Dunyodagi ekologik barqarorlikni ta'minlashda asosiy hujjatlardan biri bo'lgan Parij kelishuviga ko'ra, 2030-yilga qadar CO₂ chiqindisini 50 foiz, 2050-yilgacha esa 100 foizgacha qisqartirish ko'zda tutilgan.

Xorij tajribasi

Mehmonxona faoliyatini ekologik mezonlarga ko'ra tashkil etishda uch omil asosiy o'rin tutadi:

davlat belgilagan regulativ choralar, bozor talabi va ijtimoiy mas'uliyat hissi.

Bu borada Shimoliy Yevropa mamlakatlari tajribasi e'tiborga molik. Masalan, Shvetsiya muqobil energiya manbalaridan foydalanishni rag'batlantirishda asosiy ta'sir vositalaridan biri sifatida soliq siyosatiga tayanadi. Qazilma yonilg'ining sarflangan har bir litri uchun uglerod solig'i undirilgan holda, muqobil manbadan olingan energiya soliqlardan ozod qilinadi. Yana bir chora sifatida “yashil sertifikat” tizimi joriy qilingan. Bunda ishlab chiqarilgan har bir megavattsoat muqobil energiya uchun yashil sertifikat beriladi. Energiyaning yirik iste'molchilari bo'lgan korxonalar issiqxonaga gazi chiqindisiga kvota olish uchun ham muqobil energiya asosida ishlovchi subyektlardan yashil sertifikat sotib oladi.

Shvetsiyada turistik xizmatlarni sertifikatlashtirish bo'yicha maxsus Nature's best tizimi mavjud. U sayohatlik obyektlari faoliyatida yuqori ekologik standartlarga rioya etilishini nazorat qilib, baholab boradi. Swedish ecotourism society uyushmasi esa mamlakat ekoturizmining jozibadorligini oshirish bo'yicha harakatlarini bajaradi. Bioxilma-xillikni saqlab qolish, iqlim o'zgarishiga ta'sir qiluvchi omillarni minimallashtirish, energiya samaradorligi borasida turistik obyektlar uchun tavsiyalar ishlab chiqib, amaliyotga tatbiq etishda hamkorlik qiladi.

Barqaror turizm sohasida peshqadamlardan bo'lgan Norvegiyada tabiat qo'ymida dam olish har bir shaxsning ajralmas huquqi sifatida e'tirof etilgan holda mazkur jarayonda amal qilinishi shart bo'lgan me'yorlar qonun bilan belgilab qo'yilgan. Xususan, “Atrof-muhit muhofazasi to'g'risida”gi qonunga ko'ra, tabiatga zarar yetkazganlik uchun jarimadan qamoq jazosigacha bo'lgan sanksiya choralarini qo'llanadi. Shuningdek, turistik obyektlar faoliyatini tashkil etishda chiqindilarni saralash va ulatizatsiya qilishdan tortib, elektr energiyasidan foydalanish, kimyoviy moddalarni qo'llash, qurilish materiallarini tanlash, hatto taklif qilinadigan taomnomaga ham alohida sertifikatlash tizimi joriy etilgan. Bu sertifikatlar asosida turistik obyektlar reytingi shakllantirib boriladi.

Yomg'ir suvini yig'ishdan chiqindini qayta ishlashgacha

Davlat tartibga solishidan tashqari, ijtimoiy mas'uliyat va bozor talabidan kelib chiqqan holda faoliyatini ekologik qadriyatlar asosida yuritayotgan mehmonxonalar tobora ko'paymoqda. Masalan, Singapurda JW Marriott mehmonxonasining o'ziga xos tuzilishi tufayli havo oqimi bino ichi hech qanday konditsioner tizimisi saqlanilish imkonini beradi. Shuningdek, inshoot arxitekturasini sug'orish uchun ishlatiladigan yomg'ir suvini to'plashga moslashtirilgan. Mamlakatdagi boshqa



O'zbekiston va “yashil” turizm

O'zbekiston tabiat muhofazasi masalasida o'zini har tomonlama mas'uliyatli mamlakat sifatida namoyish etib kelmoqda. Prezidentimizning “2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini



Mehmonxonalar uchun joriy etilgan nufuzli xalqaro ekologik sifat belgisi — “Green Key” sertifikatiga ega bo'lgan Intercontinental mehmonxonalar tarmog'i O'zbekiston bozoriga kirib kelganini sohaning yutug'i sifatida e'tirof etish mumkin. Energiya va suv tejakorligi, chiqindilarni boshqaruv, ekologik menejment kabi yo'nalishlardagi namunalari faoliyat uchun beriladigan mazkur sertifikatga ega mehmonxonaning O'zbekistonda faoliyat

Yetti xazinaning biri

IPAK QURTI O'TIN UCHUN BOQILMAYDI



O'quvchilik kezlirimiz may oyi oxirlarida g'ozaga yaganasida qatnashishdan tashqari pilla qurti boqqan xonadonlarga hasharga ham borardik. Endi esa mayning birinchi o'n kunligidanoq pilla terilayotganini eshitib, ishlar hamma jabhada tezlashib ketganiga amin bo'lyapmiz.

Bu yil uchko'priklik pillakorlar mamlakatimizda birinchi bo'lib marrani zabt etdi. Mavsumda Uchko'prik tumanida 213 tonnadon ziyod “kumush tola” yetishtirish maqsad qilingan va ipak qurti boqish uchun 1800 dan ortiq xonadon bilan ichki shartnoma tuzilgan. Fermer xo'jaliklari hamda kasanachilar 3556 quti ipak qurti parvarish qilib, sifati va mo'l hosil oldi. Tumanda pilla mavsumini “Bahrin” mahalla fuqarolar yig'indida yashovchi tajribali va fidoyi pillakorlar Nodiraxon va Fotimaxon Ahmedovalar boshlab berdi. Ular

parvarishlagan 4 quti yangi nav ipak qurti 19 kunda pilla o'rashga kirishdi.

Namanganning To'raqo'rg'on tumanida ham pilla mavsumi boshlanibdi. “Chustko'prik” MFY fuqarosi Sanobar Qudratillayeva uch quti ipak qurtidan ko'ngildagidek hosil oldi. Uni boshqa pillakorlarga ibrat qilsa arziguqlik.

— Qariyb 10-yildan buyon ipak qurti boqamiz. Bu yil ham keng joyda, plyonka ostida parvarishladik. Birinchilardan bo'lib terimga kirishishimizga ham sabab shu, aslida. Mutaxassislar tez-tez xabar olib turdi. Reja bo'yicha uch quti urug'dan 195 kilo pilla topshirishimiz kerak edi. Biz hosilni 244 kiloga yetkazib, 26 kunda 6 million so'm daromad qildik. Pillakorlarga qaratilayotgan e'tibordan, ayniqsa, ish staji yoziylayotganidan xursandmiz, — deydi ilg'or pillakor.

O'rni kelganida bir haqiqatni aytish kerak. Shu paytgacha pillaga to'lanadigan haq odamlar mehnatiga arizas edi. O'tin uchungina ipak qurti boqqanlarni ham eshitganmiz. Ipakchilikni rivojlantirishga qaratilayotgan e'tibor tufayli pillaning xarid narxi 25 foiz



oshirilgani, pillakorlar daromad solig'i va ijtimoiy soliqlardan ozod qilingani, tutzorlar uchun yer solig'ining 10 foizi to'lanishi odamlar manfaatdorligiga xizmat qilyapti. Manfaaddorlik yuqori joyda ish unumi va sifati ham yuqori bo'ladi.

Har ikki viloyatdagi chilgi hosilni yig'ib olish jarayonida ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo'mitasi, viloyat hokimligi, “Agropilla” mas'uliyatli cheklangan jamiyati mas'ullari, tuman

hokimlari ishtirok etdi. Ipak qurti parvarishida jonbozlik ko'rsatayotgan kasanachilarga maxsus esdalik sovg'alar topshirildi.

Toshkent viloyati Quyi Chirchiq tumanidagi “Chaqmoq” MFY fuqarosi Shohida Ernazarova ham sohadagi yangilanishlardan minnatdor. U pilla brigadir sifatida faoliyat yuritayotgan turmush o'rtog'i bilan 12 quti ipak qurtini talafotsiz parvarishladi. Pillakor oila yaqin kunlarda ishtirok etib olish arasidagi.

— Bu borada 20-30-yillik tajribamiz bor. O'g'lim ham oilasi bilan alohida 12 quti ipak qurti boqdi. Jami hisobda 24 quti ipak qurti parvarishladik. Pilla chilik bo'yicha malaka oshirib kelgan mutaxassis Xitoyda 20-21 kunda pilla yetishtirilayotganini aytib, bu tajribani o'rgatdi. O'zbekistonda ham shu muddatda pilla terish mumkinligini bugun pillakorlarimiz isbotlayapti. Biz davlatga bir yarim tonnaga yaqin pilla topshirishni

mo'ljallab turibmiz, — deydi Shohida Ernazarova.

— Bu yil bizga berilgan 16 gektar tut plantatsiyasi yoniga pillaxona qurishni reja qilganmiz. Shunda ozuqa tashishdan qutulamiz. Bahorda ekan yangi tut ko'chatlarimizning hammasi ko'karib, gurkirab qoldi, — deydi shubhatdoshimizning turmush o'rtog'i.

Ipak qurti yaxshi oziqlansa, pilla sifati a'lo bo'ladi. Shu yil 10-may kuni davlatimiz rahbari raisligida charm va ipak sanoatini rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash masalalari yuzasidan o'tkazilgan videoselektorda ham pillachilikdagi eng dolzarb masala ozuqa ekani aytildi. Buning uchun yangi navli hosildor tut ekish zarurligi inobatga olinib, hokimlarga yangi tutzorlar tashkil qilish uchun 105 ming gektar yer ajratish vazifasi topshirildi. Bu yemning auktsion orqali aholiga berilishi, boshlang'ich narx 10 foiz etib belgilanishi pillaxona tashkil etish istagidagilar uchun ayni muddad bo'ldi. Band bo'lmagan aholi, jumladan, ayollarning monomarkaz va pillachilik klasterlarida qisqa muddatli kurslarda o'qitilishi bandlikni ta'minlashdan tashqari, sohada ipakchilik ilmini egallagan yetuk kadrlar safi kengayishiga xizmat qiladi. Zero, hech qachon mehnat mashaqqatdan qochmagan xalqimiz har ishing hadisini olishga intilish yashaydi. Pillakorlarimiz bir yilda uch marta pilla yetishtirayotgan ham soha allaqachon yangi bosqichga o'tganining amaldagi tasdiq'idir.

Munajat MO'MINOVA,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

15-May - Xalqaro O.I.L.A kuni



“Oila men uchun asosiygina narsa emas... U men uchun yaxlit, asosiyga yoki ikkinchi darajaliga bo'linmaydigan butunlik. Oila – hayotim, taqdirim, kelajagim”.

Hech kim tortib olo olmaydigan kuech

Boshlanishi 1-betda

Davlatimiz rahbarining 2018-yil 27-iyundagi “O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi qaroriga muvofiq, 2019-yildan e'tiboran mamlakatimizda har yili 15-may — Xalqaro oila kuni sifatida keng nishonlanayotgani ham fikrimiz tasdig'idir.

Bundan tashqari, oiladagi munosabatlarning qonunchilik asoslarini mustahkamlash, ota, ona va farzandlar huquqlarini himoya qilish, ko'makka muhtoj oilalarni moddiy va



Rustam BOYTO'RA, jurnalist

ma'naviy qo'llab-quvvatlash, ibratli oilalarni rag'batlantirish, oilada uchrashi mumkin bo'lgan zo'ravonliklarga barham berish, gender tenglikni ta'minlash borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu o'rinda ayni yo'nalishga doir ayrim raqamlarni keltirib o'tsak. Aholiga munosib turmush sharoiti yaratish maqsadida to'rt yil oldin ipoteka tizimining bozor tamoyillariga asoslangan yangi tartibi joriy qilinib, o'tgan davrda 100 trillion so'm mablag' hisobiga hududlarda 6 mingta ko'p qavatli uy barpo etildi. Boshqacha aytganda, 250 ming oila yangi boshpanali bo'ldi. Daromadli yuqori bo'lmagan 45 mingta oilaga boshlang'ich badal va foiz to'lovi uchun 2,4 trillion so'mlik subsidiyalari berildi.

Birgina o'tgan yili mamlakatimiz bo'yicha 85 mingta xonadon qurilib, 17 trillion so'mlik ipoteka kreditlari ajratildi. Aholi sonining o'sishini inobatga olib, joriy yilgi dastur doirasida 100 mingta uy-joy qurish rejalashtirilgan.

Joriy yilda oilaviy tadbirkorlik va o'zini o'zi band qilish dasturlari doirasida 50 mingdan ziyod yurtdoshimizga Biznesni rivojlantirish banki orqali zarur moliyaviy va moddiy yordam ko'rsatilishi, jumladan, ularga garov talabisiz 100 million so'mlik imtiyozli kreditlar ajratilishi, o'rta biznes vakillariga esa 1,5 milliard so'mgacha bo'lgan imtiyozli kreditlar 7 yil muddatga berilishi, umuman olganda, barcha turdagi tadbirkorlik dasturlari doirasida 2 millonga yaqin aholiga moliyaviy ko'mak ko'rsatilishi belgilangan ham oilalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarning yorqin ifodasidir.

Odatda ko'p aytilgan va yozilgan shunday mavzu, muammolar haqida so'z yuritilsa, “Obbo, yana o'sha masalani”, deya miyig'ida kulguvchi va bu borada o'zini ancha aqlli hisoblovchi sabrsizlar oz emas. Ular masalaga bepisandlik bilan “shunchaki maishiy mavzu” deb qarashdan tashqari bu haqda so'z yuritish, yozish, muhokama qilishni ortiqcha narsa deb hisoblaydi ham. Aslida esa...

Bu mavzu esga olinganda har bir kishi oilasining bugungi holati, farzandlarining qanday shakllanib borayotgani, ular bilan bog'liq quvonch va tashvishlar, muammolar, kelajagi haqida o'ylansa, mavzuga bepisand qarashlar va istehzo butkul yo'qolar, ehtimol. Hatto so'z aytish istagi paydo bo'lar ham.

Albatta, oila ikki shaxs o'rtasidagi shaxsiy munosabatlar tufayli barpo bo'ladi. So'ng irmoqlar ko'shilib daryo bo'lgani kabi ular ham elni, yurtini tashkil qiladi. Shu ma'noda, oila hayotning abadiyligini, avlodlar davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni asrab-avaylaydigan va farzandlarimiz axloqi, ma'naviyati shakllanishida eng kuchli ta'sir ko'rsatadigan manba, deya tavsiflangan.

— Dunyo o'zbek xalqini tanigandan so'ng bizning o'zlarimiz bilan qiralarimizni, aniqrog'i, oila institutimizni kashf etdi, — deya fikr bildiradi psixolog Zebuniso Ahmedova. — Bizdagi oila instituti, ya'ni bu boradagi qarashlarimiz, tushunchalarimiz majmui asrlar davomida shakllangan, saqlanib turgan. Buning asosi — oila muqaddasligi. Har bir inson g'ururini, sharafini, imkoniyatini, or-nomusini oila bilan bog'laydi. U to tushunchalarni qattiq tutishga harakat qiladi. Qaysidir jamiyatda oilalarda g'urur, manfaat,



Hakim YO'LDOSHEV olgan surat.

birdamlik tuyg'ulari qanchalik o'rin olgan, bilmadim-u, ammo bizda ular mustahkam. Jamiyatimiz, xalqimizning kuchi ham shunda. Oilaviy kelishmovchilik, ajrashishlarga kelsak, bular butun dunyoda bor. Lekin bu masalaga tabiiy hol deb xotirjam qarashimizni bildirmaydi. Biz mavjud kelishmovchilik, ajrashishlarni oila borasidagi qadriyatlarimiz, qarashlarimiz yordamida hal etishga harakat qilishimiz kerak. Oilaga qarashlarimiz o'lmas qadriyatlariga uyg'unlashgani hech kim tortib olo olmaydigan kuchdir. Faqat uni unutmasligimiz, rivojlantirishimiz, yanada mustahkamlashga intilishimiz har birimizning burchimizdir.

Abdurauuf Fitrat “Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ma'naviy-ruhiy qudrati, ichki intizomi, totuvligiga bog'liq. Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo'ladi”, deydi. Bu so'zlar oilaning katta ijtimoiy ahamiyat kash etishini anglatadi. Shu jihatdan oilalar mamlakat, millat turmush tarzi, ma'naviyati bilan birga muammolarini ham aks ettiradi. Ma'naviyat va ma'rifatsiz oila o'zani esa boshqa tomonga burilib ketishi shubhasiz. Bunday holatda uni to'g'ri yo'lga solish uchun bir umr ham yetmas.

Mukammal shaxs yoki ideal oila haqida qat'iy qoida, tavsif ham yo'q. Shu bois, mavzuga

oid biror ko'rsatma yoxud adabiyotlardan misollar keltirish niyatida emasmi. Faqat tadqiqotchilar ma'lumotlari asosida oilalarimiz muammolariga nazar tashlash va bu borada fikr-mulohazalarimizni bildirib o'tmoqchimiz.

Oilaviy muammolar ko'proq yashash sharoiti, undagi muhit, moddiy ta'minot va er-xotin o'rtasidagi munosabatlardan kelib chiqishiga urg'u berishadi. Ular qatorida eng ko'p qaynona-kelin kelishmovchiligi haqidagi fikr-mulohazalarni esa mutafakkir Ahmad Donishning “Navodir ul-vaqoye” (“Nodir voqealar”) asaridan haqiqat va beg'araz hajv uyg'unlashgan quyidagi parchani keltirish bilan cheklanamiz: “Qaynona-kelin nizolari bundan oldingi oilalarda ham bo'lgan, hozir ham bor va bundan keyin ham bo'ladi. Ular doim urishaveradi. Ular nima uchun urishadi? Chunki nima uchun urishayotganliklarini o'zlarini ham bilmaydi”.

Oilani katta qadriyat, dedik. Afsuski, ko'plab qadriyatlar, an'analar yillar silsilasida o'zgarib ketarkan. Yillar silsilasi esa shunchaki vaqtlar o'tishi emas, muayyan davr davomida qarashlarimiz, munosabatlarga ta'sir ko'rsatuvchi omillar bo'lsa kerak.

Asrimiz boshlariga kelib, dunyo mamlakatlarida ijtimoiy o'zgarishlar sababli

Aholiga munosib turmush sharoiti yaratish maqsadida to'rt yil oldin ipoteka tizimining bozor tamoyillariga asoslangan yangi tartibi joriy qilinib, o'tgan davrda 100 trillion so'm mablag' hisobiga hududlarda 6 mingta ko'p qavatli uy barpo etildi. Boshqacha aytganda, 250 ming oila yangi boshpanali bo'ldi. Daromadli yuqori bo'lmagan 45 mingta oilaga boshlang'ich badal va foiz to'lovi uchun 2,4 trillion so'mlik subsidiyalari berildi.

oilalarda muammolar sanog'i va tusi — oilaviy ajralishlar, zo'ravonlik, xiyonat, og'ma xulq-atvor va hokazolar ko'paydi. Og'ma xulq-atvor ilmiy tilda “deviant”, deyiladi. U jamiyatda o'matlangan axloq me'yorlariga mos kelmaydigan faoliyat yoki xatti-harakat, ijtimoiy hodisa sanaladi.

Yaqin paytlargacha kimlarga dir baxt, biz uchun esa oddiy burch bo'lgan oilaviy qadriyatlar bilan bog'liq tushunchalar hozir yoshlar ko'nglidan qanday ko'rinishda joy olgan, deb o'ylab qolamiz. Ruhiyatimizdagi ayrim salbiy o'zgarishlar qachon va qanday yuz berganini anglamay qolaymizmi?

— Yoshlar xarakteri, qarashlari, boshqalarga munosabati, intilishlari o'zgarib borishi avvaldan bor jihat, — degandi ziyoli

otaxonlardan biri. — Ular ham siz bilan biz yashayotgan jamiyatda, muhitda tug'ilib voyaga yetyapti. Biz hammamiz o'zgarib boramiz. Bugungi kun qachonlardir kelajak bo'lgan. Ana shu avlodlar hayoti oraliq'ida ta'lim-tarbiyada, jamiyatimiz shakllanishida qandaydir kamchilik, xatoliklarga yo'l qo'ygandimiz. Bugun yashash uchun, o'qish uchun qulayliklar ko'p, lekin ular to'g'ri foydalanishga yoshlarning vaqti yo'qdek. Telefoni titkilash uchun esa doim vaqt topadi. Unalqar haqida “Bir qarasang, bilimi ko'p, razm solsang, sog'lom fikri yo'q” deging keladi. Xuddi dori-darmon ko'p-u, salomatlikni asrash qiyin, degandek gap. Lekin xorijda o'qigan, o'qiyotgan, sport-u san'atda, tadbirkorlikda, oilasiga munosabatda tengdoshlari ibrat olsa arzigulik yoshlar, buning uchun ko'ngillari xotirjam va faxrlanayotgan ota-onalar oz emas. Matbuotda ham, ijtimoiy tarmoqlarda ham shular haqida targ'ib qilish kerak. Axborot asrida tarbiyaga vaqti bo'lmayotgan ota-onalarning telefonidan tarbiya olayotgan nevarayu bolalari ham ko'rsin shularni... Ota-onalar ularni turli tarmoqlardagi ma'nisiz, bezama narsalarni ko'raversa, ma'naviy darajasi, saviyasi ham o'shanga tenglashib qolishini aytib turishi kerakmi?..

Biror kishi to'g'risida so'zlaganda, ishga olinayotganda, tabriklarda ham, albatta, oilasi haqida fikr bildirib o'tamiz. Havas qilgulik ajoyib oilasi bor, degan ta'rif uning barcha fazilatlariga yanada ko'r'k beradi. Hatto qattiq tanqid qilinayotgan odamga nisbatan “guldek oilang bo'lsa” degan so'z uning shaxsi “qilashidan” asrab qoladi. Ya'ni uning bitta bo'lsa ham mustahkam yaxshi tomoli oila sifatida yuzaga chiqadi. Yaxshi oila insonni har doim, har qachon va har yerda asray oladigan buyuk kuch. Faylasul oilalardan biri bunday fikr aytgan ekan: “Oila men uchun asosiygina narsa emas... U men uchun yaxlit, asosiyga yoki ikkinchi darajaliga bo'linmaydigan butunlik. Oila — hayotim, taqdirim, kelajagim”.

BMT Bosh Assambleyasining 1993-yil 20-sentabrdagi Xalqaro oila yili to'g'risidagi rezolyutsiyasiga muvofiq, 1994-yildan boshlab 15-may — Xalqaro oila kuni sifatida nishonlanadi. Xalqimizda esa oila azaldan muqaddas darog' sifatida e'zozlangan, bu qo'rg'onga zavol yetmasligi uchun asrab-avaylangan. Zero, oilani boshqarish, farzandlarni xalqqa, vatanga munosib avlod qilib yetishtirish mas'uliyatli vazifa sifatida qaralgan.



farzandlari ham bog'lar daromadidan faqat o'z farovonligini ko'zlamaydi. Doimo xayrli ishlarga sarflaydi. Xususan, bog'bon ko'magi bilan tumandagi Zarchoh qishlog'idan oqib o'tuvchi To'palang daryosi ustida 33 metrlilik temir-beton ko'priki buniyod etildi. Toqchi qishlog'ida 120 o'rinlik maktab qurildi. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Nosirxon ota umrini avlodlarga o'zidan go'zal mevaazor bog'lar qoldirishga, el uchun ezgu ishlar qilishga

hissa qo'shishdan, el koriga yarashdan ham ortiqroq baxt bormi dunyoda? Aslida, inson umrining mazmuni aynan shu. Toqchi, Gazark, Kichikko'l qishloqlariga tabiiy gaz o'tkazish, Gulshan, Qulmozor mahallalarini toza ichimlik suv bilan ta'minlash, qishloq yo'llarini obodonlashtirishga homiylik qildi. Bugungidek xayrli sayillar tashkil etyaptiki, otaning bu g'ayrati biz, ijodkorlarga ham ilhom baxsh etayotir. Qush uyasida ko'rganini qilarkan-da. Farzandlari ham mehnatkash, bog' yaratishga ishtiyoqmand, qo'li ochiq va tashabbuskor, — deydi sarosiyolik matbuot faxriysi Abduraim Rahmonov.

ko'z o'ngida buniyod etildi. Atrofdagi turli qishloqlardan daryo yoqasiga ko'chib kelganlar hisobidan avval ovul, keyin qishloq paydo bo'ldi. Tibbiyot texnikumini tugatgani sabab tuman markazidan ancha olisidagi qishloq — Boyqo'rg'onda kerakli qonson aylandi. O'sha paytlarda yo-kuni yaqin, homilador ayollar aksariyati farzandini o'z uyida dunyoga keltirardi va og'ir sharoit taqozosi bunga majbur etardi.

Qishning izg'irin va yozning jazirama kunlarida ham, kunning qay pallasi bo'lmasin, ko'pincha yayo, ba'zan ot-ulovda yordamga shoshardi.

Bugun Boyqo'rg'onda yashovchi o'nlab yuzlab o'rta va yosh avlod vakillari uni “ena”, deyishadi. Bundan biladiki, ular dunyoga kelishida doaylik qilgan.

O'tgan asrning to'qsoninchi yillari boshlarida mahalla fuqarolar yig'indisi xotin-qizlar mas'uli bo'ldi. Shu joyda qishloqdoshlari “Anzirat xola”, deb ot qo'ydi. O'sha paytlarda “Suyunchi” filmi yaratilib, anchagina mashhur bo'lgandi, uning qahramonini shu kishiga mengazshadi. Shu yerda Anzirat xola Anzirat momoga aylandi. Keyingi yigirma yillik umri mahalla kayvonisi bo'lib, el-yurt dardi, tashvishi bilan birga o'tdi.

Bu kuch unga qayerdan keldi? Turmush o'rtog'i dunyoni erta tark etdi. Yetti o'g'il va bir qizning taqdiri, ularni ulg'aytirish, o'qitish, uyli-joyli qilish, uylantirish va turmushga berish o'ziga qolib ketdi. Sabrlar kuchli qildi, mashaqqatlar kuchli qildi, yig'ilar kuchli qildi, dashnomlar kuchli qildi. Bu dunyo o'lmaganiki ekan, birodir! Halol mehnat va rizq, tinimsiz mehnat, yaxshilik, yaxshi niyat va umidlar uni va farzandlarini ulg'aytiradi, kamolga yetkazadi, barchasini oliy ma'lumotli, uyli-joyli qildi.

“Shomdan so'ng tun kelar, tundan so'ng quvonch, tong. Qayg'u va g'amdan so'ng qonuch, albatta, keladi. Insonning yo'li ham, davlat va jamiyatning, tarixning yo'li ham shu”, deydi onaxon.

Buyuk O'zbekistonimizning ham yo'li shu! Oilalar boshi, kayvonilar duosi kishini kamolga eltadi. Ko'nglingizda shukri bo'lsinki, bu sizning yuzingizga, yo'lingizga, albatta, ko'chgay!

Sarvar TO'RAYEV, “Yangi O'zbekiston” muxbiri

YASHNATSANG — YASHAYDI, QARAMASANG — QURIYDI

mulohazakor bo'larkan, vatan ham shunday ko'rinishga ko'chadi.

Qush uyasida ko'rganini qiladi

Sariosiyolik taniqli bog'bon Nosirxon ota To'raqulovni ko'pchilik yaxshi taniydi. Ishning ko'zini biladigan, uquvli, oqsogol fermerlardan. Otaxon bosh bo'lib kelayotgan “Bog'-u bo'ston” fermer xo'jaligi a'zolarining qir-u adirligidan iborat qaqrog, qarovsiz yerlarda barpo etgan bog'-rog'larini bugungi kunda mo'jiza, deyish mumkin.

U aynan qaqrab yotgan toshloq yerni tanlab, ayoli va farzandlari bilan bog' buniyod etishga kirishganida ayrimlar “Suvsiz yerda bog' bo'larkanmi?” deya kuldi. Lalimi yerga ketmon urayotgan Nosirxon ota boshini ko'tarib:

— Oila bir bog'dek gap: yashnatsang — yashaydi, qaramasang — quriydi, — degandi.

Otaxon obihayotsiz qir-adirni ulkan tajriba maydoniga aylantirdi. Ko'chatlarni qadashdan bir yil oldin farzandlariga xandaqlar qazdirib, uni qor va yomg'ir suviga to'yintirdi. Yaxshi yetilgan yerga eng sara navli ko'chatlar o'tqazdi.



Nihollar bexato undi. Yozning chillasida suv tashib, ularni tomchilatib sug'ordi. Bugun bu yerni jannatga mengazsh mumkin.

Umrining to'qsoninchi donovidan o'tgan Nosirxon otaning xonadoni — oilasi ham bir qishloqdek go'yo.

Oilada Nosirxon otaning sabog'ini olgan

bag'ishlayapti. Ibratli mehnati va hayoti orqali el nazariga tushgan tabaruk otaxon bir necha bor davlatimiz tomonidan munosib taqdirlandi.

Ehtiyojmand, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning farzandlaridan bir nechtasining sunnat to'yilari ham o'tkazildi.

— Mehnating bilan shu yurt ravnaqiga

Sabr va mashaqqat kuch berdi

Karomat momo Eshqobilova umrining yetimshinchi donoviga chiqqan, Dehqonobodning olis qishlog'ida hayotining yaxshi va rutubatli kunlarini o'tkazgan oddiy, keksa onaxon. O'raddaryo yoqalab bir-biriga ulanib ketgan o'nlab qishloqda, xususan, uning Boyqo'rg'on qishlog'ida tong otadi — hayot qaynaydi, kun botadi — hayotdan mamnunlik hissini tuyasiz. Ayol boshi, qo'rroq ko'z va botir qo'li bilan buniyod etgan bog', yaratgan gulzori hamda hayot davomchilarini tongda va shomda quyosh yanglig' kuzatib, ko'rib, xursand bo'lshdan, umuman, tiriklikdan ortiq baxt bormi momoda?!

O'zbek oilasi hayotida nonushta vaqti muhim o'rin tutadi. Bu vaqtda kun davomida qilinadigan ishlarga, vazifalarga, ezgu amallarga oilaboshi tomonidan tamal toshi qo'yiladi. Ellik yildirki, oilasida shunday bo'lgan. Avvaliga xokisor turmush o'rtog'i oilaboshi edi. Bundan yigirma ikki yil muqaddam u dunyoni tark etganidan so'ng ertalabki bu fursat hamonki og'ir va zalvorli kechadi. Ham ota, ham ona bo'lib 8 farzandni o'qitib, kamolga yetkazdi. Ularni turli tomonga uchiirma qildi.

Turmush o'rtog'i bilan Samarqanddagi tibbiyot texnikumida tanishuvi bilan erining yarmiga aylanib, bu begona joylar ham uning uchun vatanga evrildi. Hayot kitobidagi keyingi yarim asrlik bitiklar shu qishloqdagi voqe'liklardan buniyod bo'lgan.

Daryo yoqasidagi Boyqo'rg'on qishlog'i



Botu tavalludining 120 yilligi

O'G'IRLANGAN BAXT

yoki mahv etilgan fojiali taqdir

Ona tilimiz jonkuyari, yosh avlodni vatanparvarlik, fidoyilik, yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash hamda vatan hurligi va ozodligini ko'zlagan jaded bobolarimizdan biri Botu taxallusi bilan ijod qilgan Mahmud Hodiye edi. U yigirma olti yoshida "aksilinqilochi", "xalq dushmani" va "millatchi" sifatida qamoqqa olinib, o'n yillik jazo muddatini o'tash uchun dastlab Soloves orollariga yuborildi, so'ngra 1938-yil 9-mayda Moskvada otib tashlandi.

Turg'un ZIYAYEV,
Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti faxriy doktori

Sovet davlati o'zining birinchi konslageri uchun joyni Shimoliy muz okeaniga tutash Soloves orollaridan tanlagandi. Bu yerdan qochib ketish ham, tirik qaytib kelish ham amri mahol edi. O'ra Osiyodan Soloves orollariga borib qolgan aksar mahbuslar birinchi yilning o'zidayoq sovuqdan qirilib ketgan.

Botu bundan 120 yil ilgari, 1904-yil may oyida Toshkentda dunyoga kelgan. Shoimi yaxshi bilgan zamonoshlaridan biri Laziz Azizdoda bunday yozadi: "Botu bo'zchi oilasida dunyoga kelgan. Otasi Mahsud Hodiye katta ilm egasi bo'lmasada, ulkan kasb sohibi edi. Taraqqiyparvar yoshlar va olimlar bilan doimo munosabatda bo'lib, hamisha gazeta-jurnallarni qo'lidan qo'ymasdi. Sarrojlilik kasbini ham yaxshi bilardi".

— Shoimning onasi To'xta opa aqlli, sezgir, rahmdil va mehribon ayol edi, — deydi Botu ijodi tadqiqotchilaridan biri Boboxon Sharipov. — Bu munis ayol ko'pgina o'zbek xalq ertaklarini, qo'shiqlarini bilib va ularni farzandlariga ta'sirchan qilib aytib berardi. U o'tkir zehni bilan alohida ajralib turadigan to'ng'ich farzandi Mahmudda shu tariqa ona tiliga, xalq poeziyasiga, xalq ijodiyotiga katta muhabbat uyg'otdi.

Mahmud olti yoshida eski maktabga borib, xat-savod chiqardi. So'ng otasi Mahsud aka zamonasining shayxontohurlik ilg'or kishilariga yaqin bo'lgani uchun to'ng'ich farzandini rus-tuzem maktabiga o'qishga berdi. Botu ruschaga uncha-muncha tushunadigan, rus tilida chiqadigan "Samarqand" singari gazetalarni binoyidek o'qiydigan bo'ldi.

Botu 1918-yilda "Vatan" maktabida Said Ahroriy tashabbusi bilan tashkil etilgan "Izchi"



guruhi, 1919-1921-yillarda esa Fitrat tashabbusi bilan tuzilgan "Chig'atoy gurungi" faoliyatida ishtirok etdi. U shu davpda Fitrat ta'sirida bo'ldi, ustoz muharrirlik qilgan "Tong" jurnalining nashr etilishiga kotib sifatida hissa qo'shdi. 1921-yilda "Farg'ona" gazetasiga muharrir etib tayinlandi. 1922-yili esa Moskvaga, Pokrovskiy nomidagi institut huzuridagi ishchilar fakulitetiga o'qishga yuborildi.

U yerda o'qishni tugatgach, 1923-1927-yillar mobaynida 1-Moskva davlat universiteti ijtimoiy fakulitetining iqtisod bo'limida tahsil oldi. Shu yillarda Moskvada yashab turgan Fitrat va Cho'lpon bilan yaqin aloqada bo'ldi hamda ularning she'rleri va qarashlari asosida tarbiyalandi.

Shoir 1923-yilda o'zi tahsil olayotgan universitetga o'qishga kirgan. Turkmanistonning Ashxobod shahridan kelgan Valentina Petrovna

Vasilyeva bilan turmush quradi. Botuning quvonch va iztiroblarga to'la keyingi hayoti shu ayol bilan chambarchas bog'liq. 1926-yil 3-yanvarda Moskvada Botu va Valentining to'ng'ich farzandi Erkli, 1928-yil 10-avgustda Toshkentda qizi Naima tug'ilgan.

1927-yili Botu Moskvadagi o'qishini tugatdi. "Yer yuzi" jurnali 1927-yildagi 18-sonida Botu surati tushirilgan quyidagi xabarni e'lon qilgan:

"Botu Hodiye Moskvada davlat dorilfununining iqtisod fakulitetini bitirib, yaqinda O'zbekistonga keldi. Bu yil O'zbekistonda ishlab, diplom ishini bajardi. O'rtog' Botu hozir Samarqandda Markaziy firqa qo'mitasi ixtiyorida. Botu o'zbeklar orasida iqtisod fakulitetining to'ng'ich bolasidir".

Mahmud Hodiye oliy ma'lumotli iqtisodchi diplom bilan O'zbekiston K(b)P Markaziy qo'mitasida yo'riqchi lavozimida qisqa muddat

xizmat qildi, ayni paytda Samarqanddagi Markaziy partiya maktabida voiz (lektor) va rahbar (direktor) vazifasini bajardi. So'ng Markaziy qo'mitaning matbuot bo'limiga mudir etib tayinlandi. 1928-yil yanvarda Samarqand okrugi partiya tashkiloti targ'ibot va tashviqot bo'limiga mudir bo'ldi. U mazkur lavozimda xotin-qizlar ozodligi masalalariga katta e'tibor berdi. "Alanga" yoshlar jurnalini tashkil etib, uning birinchi muharriri sifatida faoliyat yuritdi. Shuningdek, "Qizil qalam" adabiy uyushmasi tashkilotchisi va rahbari bo'lib, adabiy jarayonda keng ishtirok etdi.

Ijodkorning ilk she'ri 1917-yilda yozilgan. U bu vaqtda endigina o'n besh yoshga qadam qo'yan edi. Shundan keyin vaqti matbuot sahifalarida bir necha she'rleri e'lon qilindi. 1925-yili "Umid uchqunlari", 1929-yili esa "To'lqin tovushlari"



4-yilga qisqartirildi. Erkli Hodiye bu muddatni o'tab, 1946-yilda ozodlikka chiqadi.

1950-yili Valentina Petrovna o'n yillik qamoq jazosini sho'rolar mamlakatining eng dahshatli joylarida to'la o'tab, farzandlari bag'riga eson-omon qaytib keladi. Shu vaqtda Naima Mahmudova institutni bitirib, Xivaga yo'llanma olgan edi. Eridan judo qilingan, uyi tortib olingan, Toshkentda yashash huquqidan mahrum etilgan Valentina Petrovna bolalari bilan Xivaga borib, 1958-yili oqlanguniga qadar o'sha yerda yashaydi. Botuning o'g'li Erkli Mahmudovich Hodiye o'sha vaqtda Moskvadagi jarrohlik institutida o'qib, Vishnevskiy klinikasining ordinaturasida tahsil olib, dastlab nomozdlik, keyin doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Toshkentga qaytgandan keyin tibbiyot fanlari doktori, professor Erkli Hodiye uzoq yillar davomida Toshkent pediatriya tibbiyot instituti 2-bolalar jarrohligi kafedrasida mudir bo'lib ishlagan.

to'plamlari nashr etilishi bilan Botu o'zbek yoshlarining eng sevimli shoirlari qatoridan o'rin egalladi. Botu she'rlar bilan bir qatorda qissalar, dostonlar, hikoyalar va maqolalar ham yozdi.

Botu klassik adabiyotimiz namoyandalari sevar va hurmat qilardi. Navoiydan boshlab Lutfiy, Boyqaro, Sakkoki, Furqat kabilardan ko'proq o'rganishni xohlardi.

Mahmud Hodiye Botuning adabiyotshunos olimlar — akademik Naim Karimov va Sherali Turdiyev tomonidan 2020-yilda nashrga tayyorlangan tanlangan asarlarining 41-42-betlarida Navoiy haqida 1921-yil aprel oyida yozilgan she'rida bunday satrlar bor:

Navoiyning otini
Oltin bilan yozaylik.

Botu bu she'ri yozgan paytda hali 17 yoshga to'lmagan hamda oliy ma'lumotga ega emasdi, davr va muhit ham qalits edi. Botuning buyuk mutafakkir, g'azal mulki sultoni va davlat arbobi Alisher Navoiy borasidagi orzulari va amalga oshira olmagun ishlarini keyinchalik o'zbek milliy adabiyotining taniqli va yetuk navoiyshunos olimlari bajardi.

Botu qamoqqa olinganidan keyin xotini Valentina Petrovna eri sovet davlati oldida mutlaqo gunohsiz, aksincha, vatanparvar, xalqparvar, taraqqiyparvar, ajoyib inson ekani aytib, kirmagan eshigi qolmaydi. Ammo biror idora rahbari uning so'zlariga quloq osmaydi. 1941-yil iyulida esa uning o'zi ham qamoqqa olinib, 10 yillik jazoni o'tash uchun Magadanga yuborildi. 15 yoshli o'g'li bilan 13 yashar qizi onasiz qoladi. Bolalar yosh bo'lgani uchun Botuning ota-onasi qo'lida tarbiyalanishiga ijazot beriladi.

Lekin oradan ko'p o'tmay, boshqa "xalq dushmanlari"ning 15-16 yoshga to'lgan farzandlari qatori Erkli ham qamoqqa olinadi. Avval unga 10 yil qamoq jazosi beriladi, keyin bu muddat



Ijodkorning ilk she'ri 1917-yilda yozilgan. U bu vaqtda endigina o'n besh yoshga qadam qo'yan edi. Shundan keyin vaqti matbuot sahifalarida bir necha she'rleri e'lon qilindi. 1925-yili "Umid uchqunlari", 1929-yili esa "To'lqin tovushlari" to'plamlari nashr etilishi bilan Botu o'zbek yoshlarining eng sevimli shoirlari qatoridan o'rin egalladi. Botu she'rlar bilan bir qatorda qissalar, dostonlar, hikoyalar va maqolalar ham yozdi.

Minajatdin QUTLIMURATOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

"Jahon madaniyati reytingi indeksi" (The World Culture Score Index) butun dunyo bo'ylab odamlarning o'qishga sarflagan haftalik vaqti davomiylikni aniqlash maqsadida global tadqiqot o'tkazdi. 2023-yil natijalari taqdim etilgan ro'yxatda kuchli uchlikni Hindiston, Tailand va Xitoy egallagan.

Bir tanishim hikoya qiladi: "Qo'shnim oddiy ishchi. Ertadan kechgacha ish bilan band. Kechqurun horib, charchab qaytadi. Shunga qaramay, kitob o'qiydi. Bir kuni undan holi bo'lmasa ham nega kitob o'qiyverishini so'radim. "Ha, juda charchayman. Issiqni issiq, sovuqni sovuq demay ishlayman, qora terga tushaman, biroq kitob o'qishni

YOSHLARNI KITOBBGA,
kitobxonlikka qaytarish zarur

Biz kitob o'qiyamizmi? Bu savolga turlicha javoblar mavjud. Boshqalarga mazkur savol bilan yuzlanishdan avval o'zimizdan so'rab ko'raylik-chi: haqiqatan kitob o'qishga vaqt ajratamizmi?

kanda qilmayman. Chunki kitob — eng katta tarbiyachi. Farzandlarim ham o'qishga odatlansin deyman. Peshonada bor ekan, sharoit sabab o'qiy olmadim, endi bolalar o'qisin. Oq-qorani farqlashni o'rganisin. Mutolaa yaxshi-da baribir", deya javob berdi.

Qo'shning farzandlari ham o'ziga o'xshab kitobxon chiqdi. Fikrlari teran, gaplashsangiz, suhbatning shirasi bor. Aslida, eng buyuk ixtiro — kitob, eng bebaho ma'naviy xazina ham u. Xalqimizni ma'rifatli qilishda, ma'naviy salohiyatini yuksaltirishda kutubxonaning beqiyos o'rni bor.

— Aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida kitob o'qishni keng targ'ib qilish va kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan ko'plab tadbirlar, tanlovlar, davra suhbatlari tashkil

etilyapti, — deydi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Ellikqal'a tumani bo'linmasi rahbari Oysha Matniyozova. — Tumanimizda ham ma'naviyat ma'rifat faoliyat samaradorligini oshirishda ibratli ishlar qilinmoqda. Masalan, "Yosh kitobxon" tanlovida 69-umumta'lim maktabi o'quvchisi Hulkaroy Abdullayeva faxrli ikkinchi o'rinni egallab, 50 million so'm pul mukofotini qo'lga kiritdi. Har yili an'anaga aylangan respublika kitobxonlik haftaligi joriy yilda ham tumanimizda yuqori saviyada tashkil etildi. "Kitob — bebaho xazina" mavzusida kitobxonlik aksiyalari, "Kitobxon oila", "Kitobxon ayol", "Kitobxon mahalla" ko'rik-tanlovlari o'tkazildi. Hozirgi kunda axborot-kutubxona markazimiz salkam 30 ming kitob fondiga ega.

Xalqimiz ma'naviy ongini o'stirishda, madaniyatini yuksaltirishda, ayniqsa, yoshlarning ta'lim olishi va yetuk inson bo'lib ulg'ayishida kutubxonaning ahamiyati beqiyos. Yoshlarni ilm-ma'rifat nuridan bahramand etib, samarali faoliyat ko'rsatib kelayotgan maskanlardan biri Berdaq nomidagi Qoraqalpog' davlat universiteti Axborot-resurs markazidir.

— Markazimiz kitob fondi foydalanuvchilari talab, taklif, qiziqish va ehtiyojlariga qarab doimiy ravishda adabiyotlar bilan to'ldirib boriladi. 2023-yili 2158 nusxa darslik, 4445 nusxa o'quv qo'llanma, joriy yilning birinchi choragida 2965 nusxada darslik va o'quv qo'llanmalar olindi, — deydi Axborot-resurs markazi bo'lim boshlig'i Gulnor Allaniyozova. — Rosti, keyingi paytlarda yoshlarimiz orasida

kitob o'qishga qiziqish tobora ommalashib borayapti. Salkam yigirma ming a'zomiz bor. Kitobxonlarning mutolaa bo'lgan ehtiyojini to'laqlonli qondirish maqsadida navbat almashib, ikki smenada faoliyat ko'rsatamiz. Talabalar turar joyidagi o'quv zali 15:00 dan 22:00 gacha ochiq, bu yerdan yoshlarning qadami uzilmaydi. Markazimizda ko'rish darajasi past talabalarga sifatli axborot-kutubxona xizmatini ko'rsatish maqsadida maxsus o'quv zali ajratilgan. 2023-yili brayl shriftli "Index Everest-D V5" printeri sotib olindi va maxsus o'quv zaliga o'rnatildi. O'zbek va jahon adabiyotiga oid mingdan ortiq audiokitob ham mavjud.

Qoraqalpog'iston Axborot-kutubxona markazi axborot-kutubxona muassasalariga metodik va amaliy yordam ko'rsatadi. Ayni paytda 50 nafarga yaqin xodim faoliyat yuritadi. Aholiga sifatli xizmat ko'rsatish maqsadida xodimlar malakasi muntazam oshirib boriladi. Tahlilarga ko'ra, o'tgan yili mazkur Axborot-kutubxona markazi va tuman axborot-kutubxona markazlari tomonidan jami 225 mingdan ziyod kitobxonaga xizmat ko'rsatilgan. Kutubxonalar fondi esa muntazam yangilanmoqda.

— Kutubxona binolarida ma'naviyat ma'rifat tadbirlari, kitob mutolaa va kitobxonlikni targ'ib qilishga yo'naltirilgan tadbirlar, tanlovlar o'tkazishga barcha sharoitlar yaratilgan. Foydalanuvchilar uchun wi-fi zonalar ishlab turibdi. 2022-2023-yillarda Qoraqalpog'iston Axborot-kutubxona markazi va tumanlardagi shunday markazlar ochiq byudjet dasturidan yetarlicha ovoz to'plab, Qoraqalpog'iston

Respublikasi, Nukus, Chimboy, Taxiotosh, Kegeyli va To'rtko'l tumani axborot-kutubxona markazlari kitob fondi yangi adabiyotlar bilan boyitildi, moddiy-texnik baza mustahkamlandi. Zamonaviy mebellar, kompyuter, skaner va boshqa asbob-uskunalar bilan ta'minlandi. Markazlar foydalanuvchilariga qulaylik yaratish, vaqtini tejash maqsadida masofadan xizmat ko'rsatish ham yo'lga qo'yilgan, — deydi Qoraqalpog'iston Respublikasi Axborot-kutubxona markazi direktori Injilgul Sharapova.

Kutubxona o'qish qilish kirib boramiz. Tinch, osuda. Kindir gazeta varaqlab, o'ziga kerak ma'lumotlarni ko'chirib olmoqda. Yana bir ilmiy ishi uchun zarur adabiyotlar bilan tanishmoqda.

— Axborot-kutubxona markaziga 2018-yildan buyon a'zoman. Elektron resurslar va ulardan foydalanish zali sektorida dissertatsiya va diplom ishlarining dunyodagi eng yirik to'liq matnli to'plami — ProQuest Dissertations and Theses raqamlashtirilgan rasmiy arxividan, doktorantlar uchun mo'ljallangan ulkan onlayn baza — EBSCOhost platformasidan ilmiy izlanishim uchun zarur ma'lumotlar olaman. nukus.natlib.uz saytida ro'yxatdan o'tib, turli mavzularga oid adabiyotlarni o'qish imkoniyati mavjud, — deydi Berdaq nomidagi Qoraqalpog' davlat universiteti doktranti Nurmaz Pirnarov.

Maqolamiz avvalida farzandlariga ibrat ko'rsatayotgan ota misolini bejiz keltirmadik. Zero, farzand uchun eng mukammal andaza otanadir. Kitob ko'rgan ota-onaning farzandlari ham, albatta, kitobxon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Madaniyat vaziri
Nazarbekov Ozodbek Ahmadovichga padari buzrukvori

Ahmad ota NAZARBEKOVning

vafoti munosabati bilan chuqur ta'ziya izhor etadi.

"Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka"
gazetalari tahririyati" DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Kolopak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 1627.
44034 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

Navbachi muharrir: Sardor Tolliboyev
Musahhib: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy